

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

«O'ZBEK FILOLOGIYASI» KAFEDRASI

**TOHIR MALIKNING «SHAYTANAT» ASARINING LISONIY
XUSUSIYATLARINI O'RGANISH**
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «O'zbek filologiyasi» ta'lim
yo'nalishi bitiruvchisi 4-kurs talabasi
Tajimuratova Nasiba _____

ILMIY RAHBAR:

dots. Abdullayev Sh. _____

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

____-sonli bayonnomasi «____» may 2014yil

Nukus- 2014

BITIRUV MALAKAVIY ISHI HIMOIYAGA TAVSIYA

QILINADI:

Fakultet dekani:	dots. Abdullaev H.
Kafedra mudiri:	dots. Bobojonov F.
Ilmiy rahbar:	dots. Abdullayev Sh

DAK Q A R O R I:

TAJIMURATOVA NASIBAning “**Tohir Malikning “Shaytanat” asarining lisoniy xususiyatlarini o’rganish**” mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan « » () bahosi qo’yilsin.

DAK kotibi:

Qlichev N.

« ____ » _____ 2014 yil

**Mavzu: TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ASARINING
LISONIY XUSUSIYATLARINI O’RGANISH**

REJA:

Asoslama

Kirish

I bob. “Shaytanat” asarining leksik-semantik xususiyatlarini o’rganish.

1.1. Ko’p ma’noli so’zlarning o’ziga xos xususiyatlari.

1.2. So’zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlarining ishlatilishi.

1.3. Iboralarning semantik xususiyatlari.

1.4. Murojaat birliklari haqida

II bob. “Shaytanat” asarining grammatik xususiyatlarini o’rganish.

2.1. Asarning morfologik xususiyatlari.

2.2. Sintaktik birliklar va ularning o’ziga xos xususiyatlari.

Umumiy xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

ASOSLAMA

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek tilining barcha sathlarini, grammatik qurilishini, turli xil uslublarini va ularga xos badiiy nutq shakllarini yanada chuqurroq o'rganish, uning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, milliy til va ijodkorlarning undan foydalanish mahorati orasidagi munosabatni belgilash bugungi kun tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda har bir faoliyat o'zining so'nggi natijasi bilan o'lchanadi. Ona tili ta'limi uchun sarflangan mehnat ham so'nggi natija o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalash ko'nikmalarining shakllanganlik hamda rivojlanganlik darajasi bilan baholanadi.

Til vositalarini nafaqat sinxron hamda diaxron planda tadqiq qilish hozirgi davr tadrijiy til taraqqiyoti tendensiyalarini tasavvur qilishga, tilning grammatik qurilishi asosini, ularning taraqqiyot bosqichlarini bilib olishga yordam beradi. Shunday ekan tilning grammatik qurilishi, jumladan, leksik-grammatik xususiyatlarining taraqqiyoti muammosini badiiy asarlar misolida tadqiq qilish tilshunoslikning hozirgi bosqichida nihoyatda izlanishni talab qiladigan mavzulardan biridir. Zotan bu muammo turkiy tillar taraqqiyoti va ular differentsiatsiyasini ochib berishga ham yordam beradi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Tilshunoslikda badiiy asar tilini o'rganish masalasi ancha yillardan beri o'rganilib kelingan. O'zbek tilshunosligida ham badiiy asarning lingvistik, xususan, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari bo'yicha olimlar tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Shu kunga qadar Alisher Navoiy, Bobur, Muqimiy, Furqat, Gulxaniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Mahmudho'ja Behbudiy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Komil Yashin, Zulfiya, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shukur Xolmirzayev kabi ko'pgina

o'zbek adiblarining leksik-frazeologik vositalar, xalq tili elementlaridan unumli foydalanish mahorati ma'lum darajada o'rganilgan. Bu o'rinda P.Qodirovning «Xalq tili va realistik proza» (1973), Q.Samadovning «Oybekning til mahorati» (1981), «O'zbek tili uslubiyati» (badiiy uslub, 1991), I.Qo'chqortoevning «Badiiy nutq stilistikasi» (1975), M.Hakimovning «Yozuvchi va xalq tili» (1971), X.Doniyorov, B.Yo'ldoshevning «Adabiy til va badiiy stil» (1988), B.Choriyevning «G'afur G'ulom she'riyati tili» (1990), S.Karimovning «O'zbek tilining badiiy uslubi» (1992), B.Umurqulovning «Badiiy adabiyotda so'z» (1993), B.O'rinboyev, R.Qo'ng'urov, J.Lapasovning «Badiiy matnning lingvistik tahlili» (1990), B.Yo'ldoshev, Z.Pardayev, F.Bobojonovning «Badiiy asar tili masalalari» (2001), M.Yo'ldoshevning «Badiiy matnning lingvopoetik tahlili asoslari» (2007) nomli ishlarini alohida ta'kidlash lozim.

Shunday qilib, «badiiy asar tili oqar daryo. Uni o'rganish ham uzluksiz harakatni taqozo etadi. Hayot va suv (adabiyot va so'z) bir-biriga shunchalik zarurki, biri birisiz yashay olmaydi; biri birisiz yaratish qudratiga ega bo'lmaydi»¹.

Garchi o'zbek filologiyasida badiiy asar tilini o'rganish sohasida yuqorida ta'kidlangan salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilgan bo'lsa-da, ammo o'zbek uslubshunosligida bu sohada hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ham anchagina bor. Shulardan biri taniqli shoir va yozuvchilarning asarlarining lisoniy xususiyatlarini, til birliklaridan foydalanish mahoratini tadqiq etish, shu asosda ulkan so'z san'atkorlarining adabiy til rivojiga qo'shayotgan o'ziga xos ulushini aniqlashdan iboratdir. Ana shunday adabiy tilimiz ravnaqiga katta hissa qo'shayotgan yozuvchilarimizdan biri Tohir Malikdir.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Hozirgi kunga qadar o'zbek tilshunosligida badiiy asarni ilmiy o'rganish sohasida, jumladan, badiiy asarning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini yoritish masalasiga bag'ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari va monografiyalar maydonga keldi.

¹ Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent, 2002. –B.161.

Tadqiqotimizdan ko‘zlangan asosiy maqsad badiiy asar va uning grammatik xususiyatlarini, jumladan, ko‘p ma’noli so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarining ishlatilishi, iboralarning semantik xususiyatlari, badiiy asarning morfologik va sintaktik birliklari hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning badiiy asarda qo‘llanish xususiyatlarini yoritishdan iborat.

Shu bilan birga malakaviy ishning maqsadi ishlatilib kelayotgan til elementlarining badiiy asardagi o‘rnini aniqlab, o‘ziga xos xususiyatlari, bir-biridan farqi, ma’nolarini tahlil qilib, sinchiklab o‘rganishdan iborat. O‘zbek tilshunosligida darslik va qo‘llanmalarda o‘rganilgan bo‘lsada, misollarni asosan Tohir Malikning «Shaytanat» asaridan tanlab, tahlilga tortildi.

Tadqiqotimizni amalga oshirishda badiiy asarning til xususiyatlarini o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Tohir Malikning «Shaytanat» asari misolida tahlil qilish va asarning lisoniy xususiyatlarini aniqlash hisoblanadi. Oldimizga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

- yozuvchining badiiy nutq mahoratini o‘rganish;
- asarda qo‘llanilgan til birliklarini leksik-grammatik jihatdan o‘rganish, tasnif qilish hamda baholash;
- asar tilining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uning barcha til xususiyatlariga, xususan, tilning leksik-grammatik qurilishiga munosabatini belgilash.

Sanab o‘tilgan vazifalarni amalga oshirish va ko‘zlangan maqsadga erishish uchun tegishli nazariy ma’lumotlar tanqidiy nuqtayi nazardan o‘rganildi hamda «Shaytanat» asaridan misollar to‘plandi. Yig‘ilgan faktik materiallar ilmiy asosda izchillik bilan o‘rganib chiqildi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti o‘zbek tilshunosligida badiiy asar tili masalasi. Bu masalani ochib berish va tahlil qilish uchun tadqiqot obyekti qilib yozuvchi Tohir Malikning «Shaytanat» asaridan namunalar tanlandi.

Ushbu asardan boshlang'ich obyekt sifatida foydalanilib, misollar olindi va tahlilga tortildi. Ishning predmetini badiiy asar va uning til qurilishi, uni shakllantiruvchi til birliklarining ishtiroki, o'ziga xos xususiyatlari, ularning leksik-grammatik xususiyatlari va vazifalarini o'rganish kabilar tashkil etadi.

Malakaviy ishning manbalari. Bitiruv-malakaviy ishimizning manbalari sifatida oldin bu sohada amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, maktab va oliy ta'lim muassasalari uchun yaratilgan darslik va qo'llanmalar, izohli lug'atlar, shuningdek, Tohir Malikning «Shaytanat» asari (4-kitob) fikrimizni tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Ishda asosan badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqot ishlaridan asosiy manba sifatida foydalanildi.

Tadqiqot metodi va metodologiyasi. Malakaviy ishda ilmiy-tadqiqot metodlaridan tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, tahliliy usullardan keng foydalanildi.

Hozirgi o'zbek tilida badiiy asar tilining leksik-grammatik xususiyatlarini aniqlash uchun tavsifiy, qiyosiy-tarixiy metod qo'llanildi. Olingan materiallar tasviriyl metod asosida bayon qilindi. Badiiy asar tilini o'rganishda til vositalarining ishlatilish o'rnini, maqsadini, uslubini o'rganish va zamonaviy metodlardan foydalanish muhimdir. Ishda keltirilgan misollar hujjatlashtirildi, ya'ni har bir misoldan keyin qavs ichida qisqartma holida asarning sahifasi ko'rsatilib berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangiligi shundaki, malakaviy ishda badiiy asar tiliga xos bo'lgan barcha grammatik vositalar badiiy asardan ijodiy ravishda tanlab olinib, ular lisoniy tahlil qilindi va o'zbek tili hozirgi davridagi grammatik qurilishi, uni tashkil etuvchi til birliklari hamda ularning funksional xususiyatlari ko'rsatib berildi. Bunda qator leksik, morfologik, sintaktik qonuniyatlarning amal qilish yo'llari aniqlandi.

Ana shu nuqtai nazardan badiiy asar tilining tuzilishi hodisasini daliliy misollar orqali isbotlash, ko'pgina til birliklarining badiiy asar matnidagi vazifasi, uslubiy xususiyatlarining aniqlanishi ishimizning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi badiiy asar tilining o'rganilishini yangi faktlar bilan boyitishi, badiiy asarning lisoniy xususiyatlarini, xususan, yozuvchining til birliklaridan foydalanish mahoratini va uslubini aniqlashga oydinlik kiritishi hamda kelgusida shu soha bilan shug'ullanuvchi va barcha qiziquvchilarga qimmatli manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv-malakaviy ishimizning xulosa va natijalari o'zbek tilshunosligi, xususan, o'zbek tilida badiiy asar tili, uni tashkil etuvchi til birliklari va ularning asarda bajaradigan vazifasi, qo'llanishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishda, maqolalar yozishda, umuman, ilmiy adabiyotlar yaratishda ahamiyati katta. Shuningdek, ish materiallaridan soha bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda ham foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalari umumta'lim maktablarida o'qish va o'rgatish jarayonida, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi jarayonida badiiy asar tili mavzusini o'qitishda, oliy ta'lim muassasalarida seminar mashg'ulotlarida, maxsus kurslarni o'tishda asosiy va qo'shimcha manba sifatida qo'llanish mumkin. Uning amaliy ahamiyati shundaki, u badiiy asarni lingvistik tahlil qilish sohasi, adabiy til rivoji bilan qiziquvchilar uchun katta amaliy manba sifatida xizmat qiladi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish tuzilishi jihatdan asoslama, kirish, ikki asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 57 sahifadan iborat.

KIRISH

Umuman olganda, badiiy tilning asarda tutgan eng muhim oʻrni shundaki, til shakl orqali mazmunga faol taʼsir koʻrsatadi va shakl bilan mazmunning dialektik birligini taʼminlab turuvchi asosiy vosita sanaladi. Ammo badiiy til faqat shakl yaratish vositasi emas, balki shakl bilan mazmun birligini taʼminlovchi vosita hamdir. Shu sababli badiiy til hamisha mazmun yaratishning ham asosiy qurollaridan biri boʻlib xizmat qiladi¹.

Darhaqiqat, «tirik jonlarning unib-oʻsishi uchun toza havoning ahamiyati qanchalik katta boʻlsa, adabiyotimizning ravnaqi uchun chinakam badiiy tilning ahamiyati ham shunchalik zoʻr». Mohir yozuvchi, shoir yoki dramaturg uchun soʻz ham quroli, ham boʻyoq ham soz, ham tovush, ham moʻyqalam vazifasini toʻla bajaradi. Bu esa til birligi boʻlgan soʻz va iboralarning yozuvchilar, dramaturglar va shoirlar qoʻlida obrazli fikrlash, goʻzal poetik manzaralar chizish uchun vosita boʻlib xizmat qilishini toʻla isbotlaydi.

Demak, bundan koʻrinadiki, badiiy asarning sifati va qimmatini, yozuvchi, dramaturg yoki shoirning individual uslubi, birinchi navbatda, uning maqsad oʻqini nishonga bexato uradigan jozibador tili bilan belgilanadi. Shunga muvofiq badiiy asar tili masalalari tilshunos, adabiyotshunos va sanʼatshunos olimlarning diqqatini oʻziga jalb etib kelmoqda². Masalan, birgina oʻzbek filologiyasida shu kunga qadar Alisher Navoiy, Bobur, Muqimiy, Furqat, Gulxaniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadridin Ayniy, Mahmudhoʻja Behbudiy, Abdulhamid Choʻlpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Oybek, Gʻafur Gʻulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Komil Yashin, Zulfiya, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shukur Xolmirzayev kabi koʻpgina oʻzbek adiblarining

¹ Bu haqda qarang: Адабиёт назарияси, икки томлик, 1-том. Т., 1978, -В.322-323; Иззат Султон. Адабиёт назарияси. Т., 1986, -В.206-207; Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз. Т., 1993, -В.7-8.

² Qoʻngʻurov R., Karimov S. Oʻzbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari (bibliografik koʻrsatkich), Samarqand, 1984; Doniyorov X., Yoʻldoshev B. Adabiy til va badiiy stil, Toshkent, 1988, -В.78-92; Karimov S., Joʻrayev T. Oʻzbek tili stilistikasi va nutq madaniyati (bibliografik koʻrsatkich), Samarqand, 2001; Yoʻldoshev B., Pardayev Z., Bobojonov F. Badiiy asar tili masalalari. Navoiy, 2001.

leksik-frazeologik vositalar, xalq tili elementlaridan unumli foydalanish mahorati ma'lum darajada o'rganildi.

Lekin o'zbek uslubshunosligida O'.Umarbekov, Sh.Xolmirzayev, T.Malik, X.To'xtaboyev kabi bir qator shoir va yozuvchilarning o'ziga xos til xususiyatlari maxsus o'rganilganicha yo'q. O'zbek adabiyotida serqirra ijod sohibi sifatida shuhrat qozongan, O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning boshqa asarlari qatorida «Shaytanat» asarlarining til xususiyatlari ham maxsus o'rganishga muhtoj muammolardan biridir. To'g'ri, bu borada ayim olimlarning ishlari amalga oshirilgan, lekin ularda masala faqat bir tomonlama yoritilgan xolos. Shunday bo'lsada, o'zbek tilshunosligida badiiy asar tili masalasi bo'yicha bir qancha monografiyalar, ilmiy maqolalarda aks etgan. Ularda badiiy asarning o'ziga xos til xususiyatlari keng tahlil qilingan edi. Ammo ishimizning tahlil obyekti qilib tanlab olingan «Shaytanat» asarini yaxlit holda til va uslub jihatdan o'rganishni maqsad qilib qo'ymagan edi.

Ma'lumki, o'zbek tili o'zbek xalqining milliy adabiy tilidir. U tilimizning barcha vazifaviy uslublari, jumladan badiiy uslub uchun ham muhim vosita sanaladi. Darhaqiqat, badiiy adabiyotda til juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham o'z vaqtida «So'z hayotning buyuk quroli» (V.G.Korolenko), «Chinakam adabiyot arg'uvon gulining o'zginasidir» (K.Paustovski), «Adabiyotning umri boqiydir, yolg'iz ugina o'limni tan olmaydi» (Saltikov-Shchedrin), «Doimo go'zallikka intilmoq zarur» (Onore de Balzak) degan fikrlar bejiz aytilmagan. Buyuk rus yozuvchisi A.M.Gorkiy esa «Adabiyotning birinchi elementi tildir. Til adabiyotning asosiy qurolidir, hayot hodisalari, faktlari bilan birga uning materialidir», - degan edi.

Shuni ham inobatga olish lozimki, badiiy asarda tilning hal qiluvchi rol o'ynashi haqida o'zbek yozuvchilari ham juda qimmatli fikrlar bildirganlar. Jumladan, g'azal mulking sultoni Alisher Navoiy «Muhokamatul lug'atayn» asarida badiiy so'zni durga o'xshatgan edi: «So'z durining tafovuti mundin dog'i beg'oyatroq va martabasi mundin ham benihoyatroqdur. Andoqi, sharifidin

o'lgan badang'a ruhi pok etar, kasifidin hayotlik tang'a zahri halok xosiyati zuhr etar»¹.

Bu o'rinda P.Qodirovning «Xalq tili va realistik proza» (1973), Q.Samadovning «Oybekning til mahorati» (1981), «O'zbek tili uslubi» (badiiy uslub, 1991), I.Qo'chqortoyevning «Badiiy nutq stilistikasi» (1975), M.Hakimovning «Yozuvchi va xalq tili» (1971), X.Doniyorov, B.Yo'ldoshevning «Adabiy til va badiiy stil» (1988), B.Choriyevning «G'afur G'ulom she'riyati tili» (1990), S.Karimovning «O'zbek tilining badiiy uslubi» (1992), B.Umurqulovning «Badiiy adabiyotda so'z» (1993), B.O'rinboyev, R.Qo'ng'urov, J.Lapasovning «Badiiy matnning lingvistik tahlili» (1990), B.Yo'ldoshev, Z.Pardayev, F.Bobojonovning «Badiiy asar tili masalalari» (2001) nomli ishlarini alohida ta'kidlash lozim.

Shunday qilib, «Badiiy asar tili oqar daryo. Uni o'rganish ham uzluksiz harakatni taqozo etadi. Hayot va suv (adabiyot va so'z) bir-biriga shunchalik zarurki, biri-birisiz yashay olmaydi; biri-birisiz yaratish qudratiga ega bo'lmaydi» deb tushunish maqsadga muvofiqdir.

Garchi o'zbek filologiyasida badiiy asar tilini o'rganish sohasida yuqorida ta'kidlangan salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilgan bo'lsa-da, ammo o'zbek uslubshunosligida bu sohada hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ham anchagina bor. Shulardan biri taniqli shoir va yozuvchilarning so'z yoki ibora qo'llash mahoratini tadqiq etish, shu asosda ulkan so'z san'atkorlarining adabiy til rivojiga qo'shayotgan o'ziga xos ulushini aniqlashdan iboratdir. Ana shunday adabiy tilimiz ravnaqiga katta hissa qo'shayotgan yozuvchilarimizdan biri Tohir Malikdir.

Biz o'z malakaviy bitiruv ishimizda iste'dodli va sermahsul yozuvchi Tohir Malikning «Shaytanat» asarida qo'llanilgan til birliklarini tahlil qilishni, bu

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20-jild, 16-jild. T., 2000, -B. 8.

boradagi yozuvchi mahoratini ma'lum darajada ochib berishni maqsad qilib qo'ydik.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yoshlarni ijodiy tafakkur sohibi qilib yaratishni ta'lim tizimi oldiga kechiktirib bo'lmaydigan vazifa qilib qo'ydi. Zero, mustaqil va ijodiy fikrlashni o'rgangan shaxs, til imkoniyatlarining bitmas-tuganmas xazinasidan foydalanishni mukammal egallagan yosh avlodgina, buyuk kelajakni yaratishga, milliy va ijtimoiy taraqqiyot yo'llarini belgilab berishga qodir bo'ladi.

Ta'lim jarayonida yoshlardagi ilmiy g'oya va iqtidorni shakllantirish, a'nanaviy qadriyatlarni e'zozlash, vatan taraqqiyoti, ravnaqi yo'lida jon beradigan vatanparvar, ijodkor, tadbirkor, komil-u fozil yosh avlodni tarbiyalash muammosi ona tili va adabiyotning bosh vazifasidir.

Hozirgi o'zbekadabiy tilini o'rganishdek bosh maqsad til imkoniyatlaridan unumli foydalanish, o'quvchidagi tabiiy iqtidorni maqsadli rivojlantirish, nutq malakalarini shakllantirishdir.

Badiiy asar tili murakkab va o'zigaxos hodisa. Biz o'z malakaviy ishimizda Tohir Malikning “Shaytanat” asarining lisoniy xususiyatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ydik.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganishga qaratilgan bir qancha ishlarda asosan ikkita yo'nalish yetakchilik qilganini kuzatish mumkin:

1. Lingvistik yo'nalish. Tilning muayyan tarixiy davridagi holati, ayni holatga mos bo'lgan badiiy xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgarishlar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli holatlari ilmiy talqin etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy-badiiy asarlarning tili o'rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material bo'lib xizmat qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu yo'l eng qadimgi va mustahkam lingvistik a'nana sifatida yashab kelmoqda. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar qilingan;

2. Lingvopoetik yo'nalish. Badiiy asar tilini lingvopoetik yo'nalishda o'rganishning asosiy maqsadi esa bulardan farq qiladi. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi.

Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning asosan 4-5 ta vazifasi qayd qilingan:

- 1) kommunikativ vazifa – tilning kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi ekanligi;
- 2) ekspressiv vazifa – turli fikr va tuyg'ularni ifodalash;
- 3) konstruktiv vazifa – fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash vazifasi;
- 4) akkumulyativ vazifa – ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash vazifasi.

Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni “ekspressiv vazifasi” atamasi bilan bir qatorda “tilning poetik vazifasi”, “tilning badiiy vazifasi”, “tilning estetik vazifasi” kabi atamalar ham qo'llaniladi.

“Tilning estetik vazifasi” atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetik kabi bir qator tushinchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtiradi.

Badiiy asar tilini o'rganishdagi ikkinchi, ya'ni lingvopoetik yo'nalish tilning xuddi shu estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining yangilangan tilshunoslik nazariyasiga asoslangan mazmuni – o'quvchini til hodisalarini turkumlash va farqlash, nutqiy ehtiyoj uchun tanlash va qo'llash kabi faoliyatining o'n usuli bilan qurollantirishni zarur va shart deb hisoblaydi. Ular quyidagilar:

- kuzatish faoliyati;
- izlanish faoliyati;
- alohidaliklarni sharhlash;
- ularni o'zaroqiyoslash;
- umumiylikni anglash va sharhlash;
- farqlarni sharhlash;

- tasnif etish;
- hukm chiqarish;
- o'zaro aloqadorlikni aniqlash;
- xususiy nutqda qo'llashni bilish.

Zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalari egallagan bilimlarni mustahkamlashga qartilishi lozim. Biz o'zmalakaviy ishimiz uchun misollarni Tohir Malikning "Shaytanat" asaridan tanlashga harakat qildik va matndagi berilgan so'zlarni kuzatish, izlanish, sharhlash va qiyoslash orqali o'z fikrlarimizni bayon qilishga harakat qilamiz. Bizning maqsad – badiiy matnning lisoniy tahlilini o'rganishdan iboratdir.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" dagi yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalab o'qitish vazifasi, ayniqsa, ona tili va adabiyot o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, yoshlarda yuksak did va madaniyatni shakllantirish uchun eng avvalo ularning yozma va og'zaki savodxonlik darajasini oshirish lozim.

Shoir yoki yozuvchining asar ustida qunt bilan, chidam bilan ishlashi badiiy mahorat tushunchasidagi muhim va asosiy masalalardan biridir.

Badiiy til har qanday adabiy asarning o'ziga xosligini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biridir.

Bugungi kunda ona tili ta'limi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan yana biri – o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi. Mazkur talabni amalga oshirishda "Ona tili" darsliklaridagi madaniy, ma'rifiy, badiiy-estetik matnlar muhim rol o'ynaydi. Lekin, ta'kidlash lozimki, ko'pgina mashq shartlarida matnning til xususiyatlarini tahlil qilish emas, balki mavzu bo'yicha o'rganilayotgan til hodisasini aniqlash va izohlash so'raladi. Darslikdan chetga chiqmay ish olib boradigan ona tili o'qituvchilari mashq shartida berilgan topshiriqlarni o'quvchilarga bajartirish bilan kifoyalanib qoladi. Bu narsa badiiy matndan nutq madaniyatini rivojlantirishda beriladigan imkoniyatlardan foydalanmaslikka sabab bo'lmoqda. O'zishiga ijodiy yondashadigan

o'qituvchilargina ta'lim oluvchilarni matndan ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli va boshqa so'zlarni topish hamda ma'nosini izohlash bilan bog'liq ishlarga undaydilar. Shuning uchun ona tili darsliklarida berilgan badiiy matnlar tiliga xos bo'lgan bo'yoqdor, emotsional-ekspressiv, sintaktik qurilmalarni va badiiy tasvir vositalarini tahlil qilishning ahamiyati benihoya katta.

Ona tili darslarida darslikda taqdim etilgan badiiy matnning til xususiyatlari ustida ishlashda ularning o'rganiladigan nazariy bilimlarga yaqin-uzoqlik xususiyatiga ko'raturli darajada murojaat qilish taqozo etiladi. Chunonchi:

- 1) boshlang'ich sinflarda mavzuga oid o'rganilgan bilimlardan foydalanish;
- 2) 5-sinfdan e'tiboran o'rganilgan mavzularga doir bilimlarga tayanish;
- 3) O'tilayotgan bilim, undagi biror mavzu materiallariga murojaat etish;
- 4) O'rganilmagan mavzuga doir til hodisasini leksik planda tushuntirib o'tish.

Ona tili darslarida badiiy matn yuzasidan berilgan mashqlarning asosiy shartlari bajarilib, parcha ifodali o'qilgandan so'ng til xususiyatlarini sanab ko'rsatilgan yo'nalishlardan biri bo'yicha o'rganish ishlariga qisqa vaqt ajratish taqozo etiladi. Ushbu jarayonda ayrim so'z va so'zshakllarining badiiy matnda namoyon qilgan go'zalligini, nafosatini, qudratini, emotsional-ekspressiv so'zshakllari, leksik vositalarning ahamiyatini qadam-baqadam anglab, o'zi uchun so'zning yangi qirralarini kashf etib beradi¹.

Matndan uning badiiy qiymatini yaratishda qatnashgan til hodisalarining barchasi bir yo'la tahlil qilish shart emas. Faqat o'tilayotgan grammatik mavzu bilan bog'liq shakllarga e'tibor qaratish kerak. Shunday bo'lganda, bir tomondan, besamar takrorlardan qochilsa, ikkinchi tomondan, asosiy mavzuning o'rganilish jarayoniga putur yetkazmaslikka va bu jarayonning samaradorligini ta'minlashga erishiladi.

¹Mavlonova K. Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2011, 3-son, -B.14.

O'qituvchi ona tili darslarida ham darslikdan o'rin olgan badiiy matnlarda yozuvchi va shoirlarning so'z va so'zshakllarini qo'llash mahoratiga o'quvchilarning e'tiborini qaratishi lozim, bu ham ularda ijobiy fazilatlar shakllanishiga yordam beradi. "So'zlarning turli ma'nolarini anglash, o'quvchilarning his etish, idrok va tasavvur qila olish malakalarining darajasi bilan bog'liq, chunki, so'zning xoslangan ma'nolari asosan hissiyot orqali idrok etiladi va anglanadi"¹.

Ona tili darslarida asar ma'no-mazmuniga kirib borish tilni o'rganishdek, so'z ishlatish mahoratiga tomon qarab boradi, ya'ni asosiy e'tibor matndagi til hodisalariga: fonetik, so'zyasalish, leksik-grammatik vositalariga qaratilib, shu yo'lbilan obraz, sujet, g'oyani aniqlashga o'tib boriladi.

Biz o'zmalakaviy ishimizni tayyorlash jarayonida Tohir Malikning "Shaytanat" asarining badiiy til xususiyatlarini o'rganishni maqsad qildik. Matn ustida ishlashda o'quvchilar bilan faqat darslikda berilgan matnlardangina emas, balki boshqa yozuvchi shoir asarlaridan ham mavzuga doir misollar to'plash mumkin. Bunda yozuvchining so'zishlatish mahoratiga ham qaratiladi. 5-sinfda takroriy so'zlar, so'zning o'z va ko'chma ma'nolari kabi bir qator mavzular o'tilayotgan paytda, ularning badiiy matndagi ahamiyatini ko'rsatish ishlari bajariladi. Shu tariqa darsdan-darsga yozuvchining so'z ishlatish mahorati bilan tanishiladi. Bunday ishlar o'quvchilarni so'zdan kelgusida bajaradigan amaliy-ijodiy ishlarda foydalanishga undashi tabiiy.

Maktabda o'quvchini badiiy asardan olingan kichik matnni ham uqib o'qishga, so'zning sig'imi, matnning fikrga boyligini ilg'ashga va o'zida ham shunday boylilikni to'plashga imkoniyat yaratadi.

O'quvchilarni matn va uning tiplari, birliklari, badiiy matn va uning mazmuniy turlari, badiiy matnda intellektuallikning ifodalanishi, badiiy matnni

¹ Safarova R. "Ona tili ta'limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari". Toshkent, "Fan", 1993. -B.47

shakllantiruvchi vositalar badiiy matnning fonografik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ona tili darslarida badiiy matndan o'tilayotgan mavzuga doir til hodisasini aniqlash va izohlash mashqlari bilan kifoyalanmasdan, qo'shimcha ravishda muayyan reja asosida ularning til xususiyatlarini ham tahlil qilish o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishdan tashqari so'z qo'llashning uslubiy qoidalarini ham amaliy egallashlariga imkoniyat yaratadi.

Bu asarni o'qib o'rganish jarayonida, mavzuga doir misollarni tanlash paytida shuni kuzatildiki, yozuvchi sho'ro tuzumining salbiy tomonlari haqida birorta fikr bildirmagan holda aytish mumkin bo'lgan barcha gaplarni ayta olgan. Yozuvchi bu asar orqali o'quvchilarda biz uchun savolga va ayni paytda fikrlashga o'rin qoldiradi. Bu o'znavbatida yozuvchi va o'quvchi o'rtasida yaqinlikni yuzaga keltiradi.

Biz malakaviy ishimizni yozishda matnni o'qib, undagi bo'yoqlar va obrazli so'zlarni, ma'nodosh, zid ma'noli, shakldosh so'zlarni aniqladik. Matndagi emotsional-ekspressiv vositani aniqlash, anglash, shuningdek, iboralarni o'rganib chiqdik. Shuningdek, asarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rganishda tegishli til birliklari tanlanib, tahlilga tortildi. Bu misollardan ona tili o'qituvchilari o'rganiladigan mavzuga mos ravishda foydalanishlari mumkin.

O'zbek tilshunosligi, uslubshunosligining keyingi yillarda erishgan yutuqlari biz uchun nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Yozuvchi Tohir Malikning romanidan olingan misollar Sh («Shaytanat») qisqartmalari bilan beriladi, qavs ichida asarlar sahifasi ko'rsatiladi.

I BOB. “SHAYTANAT” ASARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namayon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qavariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli, ko’p ma’noli, tarixiy va arxaik so’zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so’zlar, chet va vulgar so’zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsadda olib kirilganligi izohlanadi.

O’quvchi tafakkur doirasining kengayishi, nutqining komillashuvi, yaxshilik va yomonlikni his etishi, estetik didining rivojlanishida badiiy adabiyotning ahamiyati katta. Badiiy matnlarni tushinishda til vositalarining ifodadorlik darajasi, ma’no ifodalashdagi bo’yoqdorligi kabi xususiyatlarini maktab o’quvchilari ketma-ket, bosqichma-bosqich bilib borishlari lozim.

Biz o’z ishimizni yozish uchun Tohir Malikning “Shaytanat” asarining badiiy til xususiyatlarini o’rganishni maqsad qildik. Badiiy matnni, badiiy nutqda qo’llaniladigan so’z va so’zvositalarining ma’no xususiyatlarini ifodadorlik ko’lamini hisobga olgan holda tahlil qilish, matnni tushunish bilan bir qatorda, o’quvchilarning badiiy asardan estetik zavq olishini kuchaytiradi, ularning badiiy asarga bo’lgan ijobiy munosabatini o’stiradi.

Badiiy asarlarga estetik tarbiya manbayi – tilni har tomonlama chuqur o’rganish vositasi sifatida yondashish, bizningcha xalq ta’limi zimmasidagi muhim ishlardan biridir¹.

Biz o’rganmoqchi bo’lgan mavzuimiz XX asrning oxirgi o’n yilligida dunyoga kelgan asar “Shaytanat” da psixologik tahlilning rang-barang usul hamda vositalari qo’llanilib, insonning ichki olamiga kirib borishning yangi yo’llari kashf qilindi va badiiy iste’mol doirasiga olib kirilganligining guvohi bo’ldik.

¹ Umurqulov B. “Nasriy matnda so’z”. Til va adabiyot ta’limi jurnali, 2002. 5-son. –B.23.

1.1. Ko'p ma'noli so'zlarningo'zigaxos xususiyatlari

Asarda ishlatilgan so'zning har bir so'zga yozuvchi juda katta mas'uliyat bilan yondashganligining guvohi bo'ldik.

O'quvchilar so'z boyligini oshirishning eng asosiy omili so'zva lug'at ustida ishlashdir. Til hodisalarini o'rganishda so'zva uning ma'nodoshlari, shakldoshlari, uyadoshlari, har bir so'zning o'zva ko'chma ma'nolari, talaffuzi, imlosi ustida ishlash o'quvchilar diqqatini izchillik bilan o'zboyligini oshirishga qaratish ona tili mashg'ulotlarida yetakchi omilga aylanmog'i shart.

Yozuvchining tildan foydalanish mahoratini belgilashda badiiy ifodaligini qay darajada ta'minlay olganligiga e'tibor qaratiladi. Buni ko'p ma'noli so'zlarni o'z o'rnida, muayyan estetik maqsad bilan qo'llay olishdan ham anglasa bo'ladi.

Ko'p ma'noli so'zlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashuvchi lisoniy vosita hisoblanadi.

Birgina tushuncha yoki tasavvurni anglatib kelgan so'zlar bir ma'noli yoki monosemantik so'zlar deyiladi. Monosemiya – grekcha bir ma'no demakdir.

Fan, texnika sohasiga oid atamalar bir ma'noli so'zlardir. Ikki yoki undan ortiq tushunchani ifodalab keluvchi so'zlar polisemiya deyiladi. Polisemiya grekcha so'z bo'lib, ko'p ma'no demakdir.

Polisemantik so'zlarningma'nosi faqat matnda reallashadi: Bobomning ko'zi (organ) hali yaxshi ko'radi. Buloqning ko'zi – ignaning ko'zi (teshik), uzukning ko'zi (uzukka qo'yilgan tosh). Bu gaplarda keltirilgan "ko'z" so'zi ko'p ma'nolidir.

Ko'p ma'nolilik ikki asosiy yo'l bilan hosil bo'ladi:

- 1) so'zning yangi ma'no kasb etishi natijasida;
- 2) ko'p ma'noli so'zdan yoki ko'p ma'noli qo'shimcha vositasida so'zyasalishi natijasida.

Bulardan birinchisi asosiy yo'l bo'lib hisoblanadi.

Yer (planeta) quyosh atrofida aylanadi.

Ko'rdingiz-ku, qancha yerga (maydon) ekin ekanman. Yolg'iz o'zim.

Hokim cho'zilib yotgan yeridan (joy) turib, tashqariga chiqdi.

“Yer” so'zi dastlab bir ma'noli bo'lgan, qolgan ma'molar so'zma'no tarkibi taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan¹.

Yasovchi qo'shimchalarning ko'p ma'noliligi sababli ham yasama so'zko'p ma'noga ega bo'lishi mumkin: yog'li (yog'i bor) qo'lini sochiqqa artdi, yog'li (yog'i ko'p) palov yedik kabi. Yozuvchi asaridan misollar keltiramiz:

Jalilning o'zi ba'zan do'stining bu dunyo alamlariga dosh berishiga qoyil qolib, “o'rtog'im tuproqdan emas, temirdan yaralgan”, deb qo'yardi. Hozir o'sha ta'rifni eslab, “temirligi rosr, yuragi ham temirga aylanib qolibdi”, deb afsuslandi. Temir yurakni eritish yo'llarini bilmay o'zining boshini changallab, tebranib o'tirdi.

(Shaytanat, 456-bet).

Bu gaplarda keltirilgan temir so'zi ko'chmama'noda ishlatilgan. Temir yurak – tosh bag'ir ma'nosidakelgan. Yana bir misol:

Shunga ko'raertami-kechmi qusmati qattiq guvalaga bosh qo'ymoq bo'lmish odam tavbani, shayton vasvasasidan qutilmoqni o'ylashi kerak.

(Shaytanat, 14-bet).

Yuragi yorilib o'lganlarni ko'p eshitgan: avval ko'zoldi qorong'ulashadi, nafasi qaytadi, keyin chap ko'kragida qattiq og'riq sezadi.

Keltirilgan misolning birinchisida qattiq so'z o'z ma'nosida, ikkinchi gapda ko'chma ma'noda ishlatilgan. Bunday misollarni asardan ko'plab keltirish mumkin.

¹ Qilichev E. “Hozirgi o'zbek adabiy tili”. Buxoro, 1999. –B.67.

1.2. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarining ishlatilishi

Har bir lug'atida tovushlar (harf) tarkibi va yozilishi jihatdan bir xil ammo ma'nosi har xil so'zlar mavjud. Bunday so'zlar – shakldoshlardir. Ular ma'nosiga ko'ra turli buyum, voqea-hodisa, tushunchalarni anglatadi. Ko'pincha tovush tarkibiga ko'rashakldoshlar bilan ko'p ma'noli so'zlarni ajrata olmaslik hollari uchraydi.

Ayrim so'zlar o'zlarining asl ma'nolaridan boshqa ma'nolarga ham ega bo'ladi. Inson organizmidagi tana a'zolari nomlari: bosh, ko'z, qosh, yuz, burun, og'iz, til, qo'l, oyoq, quloq va hokazo, o'zining asosiy leksik ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'nolarda ham ishlatiladi. Ularda ichki ma'no "ip"lari saqlanadi. Masalan, bosh organizmning bosh qismi – boshqaruvchi ma'nosini anglatadi va xuddi shu ma'no boshliq, boshqarma, so'zboshi, to'l boshi, ish boshi, bir bosh uzum kabi so'z birikmasi va qo'shma so'zlarda saqlanadi. Natijada lug'atimiz tarkibida shakli bir, ma'nosi turlicha so'zlar paydo bo'ladi.

Shakldoshlik va ko'p ma'nolilik orasida farq ham mavjud: shakldoshlarda so'z ma'nolari bir-biriga o'xshamaydi: ko'k – o'simlik, rang, osmon, motam libosi, olma – daraxt, meva, buyruq fe'li kabi. Ko'p ma'noli so'zlarda so'z ma'nolari bir-biriga yaqin va aloqador bo'ladi: ko'z– ko'rish a'zosi, uzukning ko'zi, derazaning ko'zi, ishning ko'zi kabi.

Shakldoshlarning uslubiy jihatdan nutqda ikki xil anglanishi tushuncha doirasini kengaytiradi: yuragiga o't tushdi – yuragi yondi.

Nutqda bir o'rinda so'z, ikkinchi o'rinda so'z birikmasini qo'llash bilan so'z o'yini yuzaga kelishi shakldoshlarda ham mavjud:

Sotuvchi do'konda qirq ishni o'ylar,

Savdoda bo'yindan qirqishni o'ylar.

“Qing'irliq qilmagin” – degan kishining,

Darhol qadamini qirqishni o'ylar (Gazetadan).

Deydilarki, kungaboqar,

Umri bo'yi kunga boqar¹.

Yuqoridagi birinchi to'rtlikda qirq ish – son, ot, miqdor; qirqish – fe'l, kesish, qisqartirish: qadamini qirqish – haydash ma'nolarida ishlatiladi.

Ikkinchi matnda kungaboqar – ot, o'simlik hamda ot+fe'l+ar birikmasi kunga boqar – shakldoshi.

Shakldoshlarning xalq og'zaki ijodida, badiiy adabiyotda poetik janr – tuyuq tuzishda keng foydalaniladi. U mumtoz adabiyotda tajnis sa'nati deb ataladi.

Shakldosh so'zlarni chuqur o'rganish o'quvchilar so'z boyligini oshirish va nutqiy mahoratini yuksaltirishda mustaqil fikrni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

“Shaytanat” asaridan olingan misollar:

yosh shakldosh so'zi keltirilgan.

1) Ulardagi yoshlarga xos matonat yig'ini to'xtatishga qurbi yetdi (115-bet).

2) Agar Asadbek o'g'illari ko'zlarida yosh ko'rsami, bo'g'ziga qadalib turgan faryodni to'xtata olmasdi (116-bet).

3) Yaxshi hamki oynavand devorning xiraligi otalari yonog'iga dumalagan ko'zy²oshni parda qilib to'sdi. To'smasami edi, balki yoshlik matonati ham ojizlik qilib qolarmidi (116-bet).

Keltirilgan misollarda “yosh” so'zi ma'nolari berilgan. Umrining yoshlik ayyomi hamda yig'laganda ko'zdan chiqadigan suyuqlik ma'nosida.

yosh – ot, yilma-yil hisobi²;

yosh – sifat, umrning vaqt hisobiga nisbatan ortishi;

yosh – yig'laganda, shamollaganda ko'zdan chiqadigan suyuqlik: bir tomchi yosh.

¹To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. “O'zbek tili o'qitish metodikasi”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”. 2006, - B. 76.

²Rahmatullayev Sh. “O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati”. T.: “O'qituvchi”, 1984.

Keltirilgan misolda otalari yonog'iga dumalagan ko'zyoshi shaklida berilgan.

til (ot) – fiziologik organ, ta'm-ma'za bilish organi:

Izoh berishni yoqtirmasa ham yoqimsiz yordamchisini tinchitish uchun:

- Bexosdan tilini tishlab olishlari mumkin, - deb qo'ydi da, ishga kirishdi (176-bet).

- Odamlarning muomalasi qanday ekan?

- Tillariga tushunmasam (283-bet).

Lekin ... kunini belgilab, to'yga aytaversak bo'larmidi ... bilasiz-ku, tillari bilan yuradigan bo'lib ketishgan (293-bet).

Tilimizda ayrim so'zlar o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ma'noviy, shakliy, ma'no jihatdan o'xshash yoki zidlanishni bildiradi. Shunga ko'ra ular shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli va paronim kabi guruhlariga bo'linadi. So'z ustida ishlash jarayoni murakkab va ko'p qirrali. Hozirga o'zbek adabiy tilida sinonimiya hodisalari va uning nutqiy amaliyotini o'rganish uchun maktab, kolledj, akademik litsey hamda oiliy ta'lim amaliyotida xilma-xil shakllar va usullar mavjud. Ularning orasida eng ko'p tarqalganlaridan biri sinonim so'zlar qatorini hosil qilishdir. Buni o'quvchi va talabalar mustaqil ravishda bajarishadi. O'quvchining dunyoqarashi, tasavvur doirasi, tayyorgarlik darajasiga qarab, bu qatorlar ancha mukammal va ixcham bo'lishi mumkin.

O'quvchilar sinonimik qatorlarni tuzish jarayonida yangi so'zlarni o'z lug'at boyliklari sirasiga kiritadilar.

Ma'nodosh so'zlar tilning lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib beradi. Tilda ma'nodosh so'zlarning ko'p bo'lishi, tilning estetik vazifasini yanada to'liq bajara olishini osonlashtiradi. O'zbek tili ma'nodosh so'zlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdagi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir maqsadlarina eng munosibini topib, ular orqali qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha ifodalashga harakat qiladilar.

Badiiy matndagi ma'nodosh so'zlar tahlilida asosan ikki jihatga e'tibor qaratish zarur. Ularning biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zni ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanho bo'lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llash masalasidir.

Tilshunoslikda ma'nodoshlikning asosan uch turi farqlanadi:

- 1) Leksik ma'nodoshlik;
- 2) Frazeologik ma'nodoshlik;
- 3) Leksik-frazeologik ma'nodoshlik¹.

Leksik ma'nodoshlikdan bir necha maqsadlarda foydalaniladi. Til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag'alligi va ravnaqsizligidan qochish mumkin.

Ma'nodosh so'zlar – tilimizning leksik boyligi. Undan qancha o'rinli foydalanilsa, shuncha kengayadi, so'zdan to'g'ri, samarali foydalanish malakalari shakllanadi.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'raturarlari ustida ishlashda ma'nodosh so'zlar guruhlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'nodoshlar yuzasidan quyidagi misollarni “Shaytanat” asaridan tanladik:

Qo'rquvni ham, asabiylikni ham sirtiga chiqarmay turishga o'zida kuch topdi (Shaytanat, 33-bet).

Men esa sening nazaringda eng yovuz, eng tuban, eng ifd² odamman (41-bet).

Azob-uqubat va jazo ham naqd bo'ldi (89-bet).

(Azob – ruhiy yoki jismoniy qiynoq).

O'n yillik kayfu-safo evaziga azob-uqubat chekaman (166-bet).

Aslida bu ishga aralashish, surishtirish niyati yo'q edi (184-bet).

¹ Asqarova M., Qosimova M., Jamolxonov H. “Hozirgi o'zbek adabiy tili”. T.: “O'qituvchi”, 1989.

² Hojiyev A. “O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati”, T., 1986. –B.106.

Asadbek biron bir odamning shoxini qayirmoqchi yoki sindirmoqchi bo'lsa, “sen hamma narsani unutsang unut-u, ammo Bek akangni unutma! Sen hatto mening o'g'limdan ham qo'rq” (195-bet).

Endi boraver, ukang sog'inib, ichikib¹ o'tirgandir (215-bet).

Gapning dangalini, naqdini, haddini, xullas, o'g'il bolasini yoqtiraman (298-bet).

Dod desang ham, faryod desang ham shu oshnajon (304-bet).

Xongirey kechikkanining sababini ham aytmadi, uzr ham so'ramadi.

Kontekstual ma'nodoshlik. Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'rama'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydiki, bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi. Masalan:

- Endi boraver, ukang sog'inib, ichikib o'tirgandir (215-bet).
- Gapning dangalini, naqdini, haddinni, xullas, o'g'il bolasini yoqtiraman (298-bet).

Frazeologik ma'nodoshlik. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan keng foydalaniladi.

Toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, burni ko'tarilmoq – dimog'i shishmoq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq, ikki oyoqni bir etikka tiqmoq – oyoq tirab olmoq, og'ziga talqon solmoq – mum tishlamoq kabilar frazeologik ma'nodoshlikka misol bo'ladi.

“Qo'rqqoq oldin musht ko'tarar” deganlari kabi xatoga yo'l qo'yganini fahmlab, qafasdan chiqish yo'llarini izlay boshladi (226-bet).

¹ Ko'rsatilgan manba. –B.16.

Jumla tarkibida kelgan ma'nodosh iborlar, qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, ikir-chikirigacha tasvirlab ko'rsatishga xizmat qiladi. Masalan:

U yenggan, yutgan, oshig'i olchi kelgan, deganini bo'ldiradigan emasmi?

Leksik frazeologik ma'nodoshlik lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la oladi. Masalan: xursand – og'zi qulog'ida, g'azablanmoq – jahli chiqmoq, beg'am – dunyoni suv bossa ham to'pig'iga kelmaydigan kabilar.

O'quvchilar so'z boyligini oshirishda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash ham katta ahamiyatga ega. Zid ma'noli so'zlarning ma'nosi, tuzlishini bilish – narsa va hodisalar orasidagi farqni to'g'ri ajrata olish imkonini beradi.

So'zning shakl va ma'nolarini belgilashda ayni bir so'zning ma'nodoshi va zid ma'nolarini kontekstda qiyoslash ham o'quvchida ijodiy tafakkurni rivojlantirishda katta yordam beradi. Masalan, sovuq va issiq so'zlari ham o'zigaxos shakldorlari va zid ma'nolariga ega: issiq havo – sovuq havo, qaynoq suv – muzdek suv, qaynoq hayot – sokin hayot, tinch mamlakat – notinch mamlakat, xushxabar – noxush xabar.

Shoir va yozuvchilar voqelikni, narsa va hodisalarning xususiyatlari, sifatini bir-biriga qarama-qarshi qo'yib tasvirlashda zid ma'noli so'zlardan unumli foydalanadilar:

Bor ekan dunyoda issiq va sovuq,

Bor ekan dunyoda saxiy ila suq,

Bor ekan dunyoda nur va ko'lanka.

Shoirlarga muhtojdir, el-elat o'lka! (Shuhrat).

Bunday zid qo'yish usuli mumtoz adabiyotlarda – tazod san'ati deb yuritiladi.

Zid ma'noli so'zlar ko'proq sifat va ravish turkumlaridan hosil bo'ladi. Ular:

- so'z birikmasi tarkibida: baland bino – past bino, oq marmar – qora marmar kabi;

- butun bir birikmada: baland bo'yli semiz kekxa ayol, past bo'yli, oriq yosh ayol;

- qalin muqovali (jildli) katta kitob, yupqa muqovali kichik kitob kabi.

Nutqni zid ma'noli so'zlar bilan boyitishda xalq maqollarining o'ziga xos o'rni va vazifasi bor. O'quvchilar "O'zbek xalq maqollari", "Aql – aqldan quvvat olar", "So'zko'rki maqol" kitoblaridan zid ma'noli so'zlar ishtirok etgan maqollarni topib, ma'nosini sharhlaydilar. Masalan: "Yaxshiga yetar sharofat, yomonga yetar kasofat", "Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib", "Yomondan qoch, yaxshiga quloq och" kabi maqollar ma'nosini sharhlash, ma'lum bir mavzuga oid maqollar topish va yozish, qiziqarli va samarali usullardan biridir.

O'quvchilar so'z boyligini oshirishda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash katta ahamiyatga ega. Ular nutqqa alohida aniqlik, ifodalilik, ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Ulardan foydalanish usullari xilma-xil:

- Berilgan so'zlarga zid ma'noli so'zlar tanlash;
- Zid ma'noli so'zlarning ma'nodoshini sharhlash;
- Juftliklar ma'nosini sharhlash, aniqlash, ular ishtirokida gap tuzish kabi amaliy ishlar bilan shug'ullanish o'quvchilar so'z boyligini oshirishga yordam beradi.

Ba'zan so'z zid ma'noli juftiga ega bo'lmaganda, yasovchi qo'shimcha qo'shish bilan zid ma'noli tushunchalarni ifodalashi mumkin. Bu ham o'quvchilar so'zboyligini oshirishi mumkin: ma'noli – ma'nosiz, aqlli – aqlsiz, bilimli – bilimsiz, bema'ni – bama'ni kabi.

Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda eng qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. Shoir uchun juda zarur bo'lgan sa'natlardan biri tazoddir. Bu sa'nat yana mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod va takofu deb ham ataladi. Bu sa'natlarda zid ma'noli so'zlardan foydalaniladi.

Yevropa a'nanasida bu sa'nat antiteza deb yuritiladi. Badiiy asar tiliga bag'ishlangan ishlarda zidlantirish, qarshilantirish atamalaridan foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlar yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi: Eski qishloqqa – yangi odat.

Kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi. Masalan:

Aql va nafs bir-biriga ziddir.

Aql rad etgan narsani nafs da'vo qiladi.

Yomonlikni kasb qilib, yaxshilik umid qiluvchilar qancha nodondir.

(Shaytanat, 4-kitob, 138-bet).

Zid ma'nolikni barqaror birikmalarda ham ko'plab uchratishimiz mumkin.

Iboralarda: ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq, yuzi yorug' – yuzi shuvut, ko'ngli oq – ichi qora, ko'zigaissiq ko'rinmoq – ko'zigasovuq ko'rinmoq, yoki so'z bilan ibora o'rtasidagi leksik-frazeologik zid ma'nolilik: xasis – qo'li ochiq, xafa – og'zi qulog'ida kabi;

Maqol va matallarda: kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda;

Hikmatli so'zlarda: Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Manzuraning zimiston ko'ngliga ravshanlik mo'ralay olmadi.

(Shaytanat, 7-bet).

Guluzorbegim aytganlariday, bu yerning qori par yostiqlay yumshog'u, boshqa yerniki toshday qattiq emas.

(Shaytanat, 8-bet).

Gapim sovuq bo'ladimi, issiqmi – haqiqat shu!

(Shaytanat, 18-bet).

Ba'zan tunlar tonglarga ulanishini, ba'zan bir necha kunlab uyga borib kelishga ham imkon bo'lmasligini hamma ham bilavermaydi

(Shaytanat, 26-bet).

Shuning barobarida shodlik quyoshi yuzini tashvish buluti to'sishga urindi.

(Shaytanat, 7-bet).

U tanish-notanish odamlar og'zidan ba'zan to'g'ri, ba'zan mish-mishlarni eshitib qolganida "bundan ko'raqimor o'ynab yurganlari maqul edi", deb qo'yardi.

(Shaytanat, 7-bet).

Asadbekning dardli ohang libosiga o'rab aytgan bu yolg'oni xuddi rost gapday eshilib, Kesakpoevani eritdi.

(Shaytanat, 77-bet).

Lekin shunda ham Asadbekning nazarida, keng dunyo juda tor bo'lib ketayotgan edi.

Tun xunik fojiaga homilador bo'lib, kun uni tug'ishga tayyorlik ko'rardi.

(Shaytanat, 89-bet).

O'lim yoki hayot daragini bermog'i lozim bo'lgantong ham otdi.

(Shaytanat, 94-bet).

Eng ulug' muqobillik esa – o'lim va hayotdir.

(Shaytanat, 108-bet).

Aqllilik va aqlsizlik ... Buning o'lchovi bormi?

(Shaytanat, 324-bet).

Birovga yaxshilik ham, yomonlik ham qilmaydigan odamdan ehtiyot bo'lish kerakmi yo faqatgina ablahlikni kasb qiliq olgandan qo'rqish zarurmi – Zohid bu masalani ham o'zicha hal etib olgan: u uchun keyingi toifa hatarli emas, chunki bunday odamlarning hujumiga ertayu-kech shay turasan (Shaytanat, 108-bet).

Yaxshilik va yomonlikni ikki emas, bir tushuncha, ya'nikim, yaxshilik – yomonlik qilmaslikdir, deb anglamoqlik ne'mati yularga nasib etmagan (Shaytanat, 109-bet).

Telefon degan minnat dastyor bor ekan, dunyoning narigi chetida turib bu chetini ostin-ustun qilib yuborish hech gap emas (Shaytanat, 134-bet).

Xumkalla melisaga kerakmas, uning o'ligini ham, tirigini ham qidirishmaydi (Shaytanat, 146-bet).

Qanchadan qancha odamning taqdirini hal etib kelgan uning aqli, katta xo'jayin bilan kichigi orasida pinhona urush ochilganini anglab yetishga kamlik qildi (Shaytanat, 149-bet).

- Nima, man sizga yosh kelinmanmi?

- Ha, yaxshi, qariligingni bo'yningga olding (Shaytanat, 155-bet).

Bir kuni sog' bo'lsa, uch kuni bemorlikda o'tadi (Shaytanat, 170-bet).

Grammatik shakllar yordamida ham zid ma'noli so'zlar yasaladi:

Adolatsiz bo'lish osonmi yoki adolatli bo'lish qiyinmi? (Shaytanat, 179-bet).

Bek aka, chiqsangiz yaxshi bo'lardi. Chehrangizni ochib o'tirsangiz ... har holda do'st bor, dushman bor (Shaytanat, 190-bet).

Sen yig'lasang, ular mazza qilib kulishadilar. Yo'q, yaxshisi sen kul, ular alamdandod solishsin (Shaytanat, 191-bet).

Ruslar Kavkazni urush bilan olishgan edi, biz uning poytaxtiga urushsiz ega chiqqanmiz (Shaytanat, 350-bet).

1.3. Iboralarning semantik xususiyatlari

“Ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan birliklari barqaror birikmalar deyiladi”¹. Iboralar, maqolmatallar, hikmatli so'zlar barqaror birikmalar hisoblanadi.

Voqeylikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zo'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o'rnini, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul hatti-harakatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'zigaxos obrazli ifodasidir.

¹ Nurmanov A., Sobirov A., Yusupova Sh. “Hozirgi o'zbek adabiy tili”. T.: “Sharq”. 2002. –B.103.

Yozuvchilar odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlabqo'llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi, qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanadi, yangi ma'no ko'nliklari bilan to'yinib boradi.

O'quvchi lug'at boyligining muhim qismini iboralar tashkil qiladi. Ma'nosi va qo'llanilishi jihatidan bir so'zga teng keladigan, ko'chma ma'no ifodalaydigan so'zlar qo'shilmasi iboralardir. U nutqimizni boyitadigan, go'zallashtiradigan va ta'sirchanligini oshiradigan vositadir. Iboralar ona tili mashg'ulotlarida faqat shu mavzuni o'rganishga emas, balki ko'pchilik mashqlarni bajarishda iboralarni o'rganib boradilar.

Tohir Malik o'z asarini yozish jarayonida qahramonlar tabiatini, psixologiyasini tasvirlash uchun iboralardan juda ko'p va o'rinli foydalanganligining guvohi bo'ldik.

Yozuvchi tilini tishlab qolmoq, tilga olmoq umuman gapirmaslik ma'nolarida qo'llanuvchi iboralardan bir qanchasidan o'zasarida ancha qo'llangan.

tilga olmoq – gapirmoq, kim, nimani, kimni, nima, nimani¹.

“Xitlarning odami” deb gumon qilinayotgan Holimjonni sinab olish uchun uning nomini tilga oldi-da, ozgina ta'rif ham berdi (Shaytanat, 312-bet).

Hozircha u hech kimning nomini tilga olmagan (Shaytanat, 386-bet).

Til biriktirmoq – kim, kim bilan. Yashirin holda kelishib olmoq, o'xshashi – gapini bir joyga qo'ymoq². Masalan:

Kesakpolvon bilan til biriktirgan fohisha bir-ikki tarsaki yerdi-yu, keyin ulushini olgach, mukofotiga uning to'shagini obod qilardi.

(Shaytanat, 292-bet).

ilini tishlab qolmoq – kim. O'zini gapirmaslikka majbur qilmoq, o'xshashi – labini tishlamoq¹.

¹ Rahmatullayev. “O'zbek tilining frazeologik lug'ati”. T.: “O'qituvchi”. 1978. –B.229.

² Ko'rsatilgan manba. –B.227.

Soliyev shunday deyishga dedi-yu, “Qassob”ning vujudida tutayotgan gumonga moy sepib, yondirib qo’yganini anglab, tilini tishladi” (Shaytanat, 37-bet).

tildan qoldi – o’xshashi – tili aylanmadi.

Eri: “Yana nima gaping bor?” degach, ahdini aytishga qiynalib, bir zum tildan qoldi (Shaytanat, 44-bet).

til topishga urinmoq

Ular bilan izma-iz yetib kelgan Jamshid milisaxonaning kattalari bilan til topishishga urinadi (Shaytanat, 46-bet).

tilini tiymoq – gapirmaslik.

Hozil Ilyasovga ham shunga o’xshagan bir gap aytvoray dedi-yu, tilini tiydi (Shaytanat, 107-bet).

Yuqoridagi iboralarga zid ma’noda ishlatiluvchi gapirish ma’nosidagi tilin tiymadi iborasidan ham adib o’z asarida qo’llangan:

To’xtaxon Jalilning amriga bo’ysinib, orqasiga o’girilishga o’grildi-yu, ammo tilini tiymadi:

- Qorinlari to’yib qolgan bularning, odamning konlari bo’lmaganda qirilib ketishardi (Shaytanat, 277-bet).

boshi qotmoq² – o’ylayverib gangimoq.

O’g’limning ham avtobazadan bo’shagisi yo’q, bir nima deyishga hayronman, boshim qotib qoldi (Shaytanat, 339-bet).

ko’z urishtirmoq – kim, kim bilan, kimlar o’zaro, kim kim bilan. o’xshashi – bir-biriga ma’noli qarab olmoq³. Masalan:

“Kerak bo’lsa yo’lda tanishib olarsanlar”, deganday u bilan ko’z urishtirib oldi (Shaytanat, 313-bet).

Tishi o’tmaydi – iborasi uchta ma’noga ega:

¹ Sh. Rahmatullayev. “O’zbek tilining frazeologik lug’ati”. T.: “O’qituvchi”. 1978. –B.230.

² Sh. Rahmatullayev. “O’zbek tilining frazeologik lug’ati”. T.: “O’qituvchi”. 1978. –B.56.

³ Sh. Rahmatullayev. “O’zbek tilining frazeologik lug’ati”. T.: “O’qituvchi”. 1978. –B.150.

1) Biror qattiqroq narsani maydalashga, chaynashga tishining qurbi yetmaydi;

2) Yenga olmaslik, o'zlashtira olmaslik;

3) Idrok qilib yeta olmaslik, uqib yeta olmaslik¹.

Asarda bu ibora ikkinchi ma'nosida ishlatilgan. Misollarga murojaat etamiz:

Mening bilganim shuki, bu tomonlar endi Xongireyniki. Boshqalarning tishi o'tmaydi (Shaytanat, 236-bet).

Past ketmoq – yerga urish:

Shuni unutmaginu, sira past ketma.

U bezatilgan dasturxon uchun pas ketib joyini o'zgartirishni istamadi (Shaytanat, 291-bet).

Chehrasi ochiq iborasi o'zbek tilining frazeologik lug'atlarida xafachiligining tarqaganini ko'rsatmoq ma'nosida izohlanadi². Asarda ushbu iboraning qo'llanishini kuzatamiz:

Chehrangizni ochib o'tirsangiz ... har holda do'st bor, dushman bor (Shaytanat, 190-bet).

O'zining bu kashfiyotidan quvongan Kesakpolvonning chehrasi ochilib, qazonkabobni buyurib qaytgan qoziga bir-ikki hazil qildi.

(Shaytanat, 239-bet).

Qo'li kalta – cheklangan imkoniyatga ega bo'lmoq, varianti – qo'li kaltalik qildi, qo'li qisqalik qildi³. Masalan:

- Keraklikka kerak ... qo'l kalta-da, Bek aka (Shaytanat, 236-bet).

Asarda yana boshini bukmoq iborasi ham ishlatilgan. Mazkur ibora o'zbek tilida *uyat, nomusdan bosh ko'tara olmaydigan holatga tushirmoq* ma'nosini ifodalash uchun qo'llanadi⁴. Masalan:

Kozlov bosh egib borsa, Asad bilardi (Shaytanat, 311-bet).

¹ Sh. Rahmatullayev. "O'zbek tilining frazeologik lug'ati". T.: "O'qituvchi". 1978. –B. 234.

² Sh. Rahmatullayev. "O'zbek tilining frazeologik lug'ati". T.: "O'qituvchi". 1978. –B. 249.

³ Sh. Rahmatullayev. "O'zbek tilining frazeologik lug'ati". T.: "O'qituvchi". 1978. –B. 223.

⁴ Sh. Rahmatullayev. "O'zbek tilining frazeologik lug'ati". T.: "O'qituvchi". 1978. –B.50.

Tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq – umidi po'chga chiqib bo'shashmoq ma'nosida ishlatiladi¹. Masalan:

Shu kayfiyatda qozixonaga kirgan Kesakpolvon Selimni ko'ib, tarvuzi qo'ltig'idan tushgan odamday ajablandi (Shaytanat, 236-bet).

Ko'zlari uchib turmoq² – kimning, kimga; ko'rish ishtiyoqidamidi?! (kesatiq bilan):

- Adalarimizning sizga ko'zlari uchib turgani yo'qdir, biz bilan otamlashib yuravering (Shaytanat, 236-bet).

Oyoqlariga bosh urmoq – kim kimning; xokisor bo'lmoq, xokisorlik qilmoq, varianti – oyog'iga bosh qo'ymoq, ma'nodoshi – oyog'iga yiqilmoq³:

Agar bu ishda Xongireyning qo'li bo'lsa, gapimni sariq chaqaga olmaydi, Bek akamning oyoqlariga bosh urib kelishlarini xohlaydi, degan fikr uni to'xtatdi.

(Shaytanat, 46-bet).

Kalavaning uchini topmoq – jumboqni hal qilish yo'lini topmoq⁴.

“U multfilmni nega eslab qoldi?” Zohid shu o'rinda kalavaning bir uchini topganday ko'ngli yorishib, savol-javobni shu mavzu atrofida davom ettirdi:

- Multfilmni oxirigacha ko'rdingizmi? (Shaytanat, 257-bet).

Yana bir iboraning qo'llanishini tahlil etaylik. Chumchuq pir etsa, yuragi shir etadi. Bu ibora lug'atlarda o'ta ketgan qo'rqoq ma'nosida izohlanadi⁵. Asardan misol keltiramiz: .

Ammo to'ydan so'ng Elchinning ko'chasiga yigitlarni qo'yganda “kimdan qo'rqasan, - Asadbek. Chumchuq pir etsa, yuragi shir etadigan bo'lib qolibdi, degan isnodga qolmoqchimisan”, deb qaytardi (Shaytanat, 257-bet).

¹ Sh. Rahmatullayev. “O'zbek tilining frazeologik lug'ati”. T.: “O'qituvchi”. 1978. –B.222.

² Sh. Rahmatullayev. “O'zbek tilining frazeologik lug'ati”. T.: “O'qituvchi”. 1978. –144.

³ Sh. Rahmatullayev. “O'zbek tilining frazeologik lug'ati”. T.: “O'qituvchi”. 1978. –B. 189.

⁴ Sh. Rahmatullayev. “O'zbek tilining frazeologik lug'ati”. T.: “O'qituvchi”. 1978. –B.126.

⁵ Sh. Rahmatullayev. “O'zbek tilining frazeologik lug'ati”. T.: “O'qituvchi”. 1978. –B.294.

1.4. Murojaat birliklari haqida

Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida, nutq jarayonida keng qo'llaniladigan o'zaroaloqa aralashuvida keng qo'llaniladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, o'zida turli modal ma'nolarni tashiydigan, o'tkir ta'sirchan vositadir. Mumtoz ba'diyat ilmda murojaat birliklari nido va iltifot sa'nati doirasida o'rganiladi.

Murojaat birliklaridan nutqda tinglovchi e'tiborini tortish, xitob qilish va undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Bunday birliklarda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi turli kommunikativ munosabatlar ifodalanadi. Maktab darsliklarida bu jarayon undalma mavzu asosida o'quvchilarga tushuntiriladi.

Murojaat birliklarining badiiy matndagi qo'llanilishini o'rganishda kim, kimga, nimaga, qanday holatda, qanday nutqiy vaziyatda murojaat qiliniyalotganligiga e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatiga ham e'tibor qilish kerak.

She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez idrok qilinadi. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarning fonetik qobig'ini o'zgartitib yozish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, rozilik, tilak, istak, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshni birdan ortiq yozish usulidan foydalanadilar.

Unlilarni birdan ortiq yozish. Bunda unlini cho'zib talaffuz qilinganligi tushuniladi. Unlini cho'zib talaffuz qilish orqali qahramonning voqelikka munosabati oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me'yoridan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalanishi ta'kidlanadi. Badiiy matnda unlilarni birdan ortiq yozish usulidan qahramonning biror nimadan hayajonlanishi, taajjubga tushishi kabi holatlarni ifodalashda foydalaniladi.

Undoshlarni birdan ortiq yozish. Aslida, orfoepik me'yor bo'yicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo'lganso'zlar muayyan vaziyatlarda estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlanib talaffuz qilinadi. So'zlovchining ichki ruhiyati (siqilish, xursand, karaxtlik, ikkilanish, achchiqlanish, biror voqea-hodisadan qattiq ta'sirlanish kabilar) va maqsadini kitobxonga "aynan" yetkazish uchun yozuvchilar badiiy matnda bu holatni undoshlarni birdan ortiq yozish orqali ifodalashga harakat qiladilar.

II BOB. “SHAYTANAT” ASARINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Grammatik shakl soʻzning u yoki bu grammatik vosita yordamida oʻzgarishidir. Turli grammatik shakllar hosil qilish soʻzning paradigmotik oʻzgarishi boʻlib, u leksik maʼno hamda kategorial grammatik maʼnolar birligiga asoslanadi. Soʻzning grammatik shakllari (turlanish, tuslanish tartibi, oʻzgarishlar yigʻindisi) sanaladi.

Maʼlumki, mustaqil soʻzlar obyektiv borliqdagi maʼlum bir predmet, belgi, harakat kabilarni anglatadi. Bu soʻzning leksik maʼnosi hisoblanadi. Grammatik maʼno soʻzning leksik maʼnosini oʻzgartirmaydi, leksik maʼnoga qoʻshimcha tarzda maʼno orttirish, soʻzni-soʻzga, gapni-gapga bogʻlash, biriktirish vazifasini bajaradi hamda maxsus vositalar, masalan qoʻshimchalar, orqali ifodalanadi. Grammatik maʼno va grammatik shakl (soʻzshakli) deganda, mustaqil soʻzlargina nazarda tutiladi.

Grammatik maʼno quyidagicha ifodalanadi:

Oʻzakga (negiz) grammatik maʼno bildiruvchi qoshimcha qoʻshish bilan: kitob-im, kitob-ni, oʻqi-di-ng, yaxshi-roq, gul-ga, gul-zor;

Yordamchi soʻzlar bilan: siz uchun, radio orqali, keldi-yu gapirmadi.

Soʻzlarni takrorlash yoʻli bilan: burro-burro gapirdi, katta-katta qurilishlar.

2.1. Asarning morfologik xususiyatlari

Soʻzlar leksik-semantik maʼnosi, grammatik belgilariga koʻra guruhlariga boʻlinadi. Ular soʻzturkumlaridir. Soʻzlarningmuyyan til doirasidagi grammatik maʼno hamda oʻzigaxos xususiyatlariga koʻra maʼlum guruhlariga ajratilishi soʻz turkumlari deb yuritiladi.

Mustaqil soʻz turkumlari lugʻaviy maʼnoga ega boʻlib, gapda maʼlum sintaktik vazifa bajaradigan, oʻzigaxos soʻroqlarga javob boʻladigan soʻzlardir. Ularga ot, sifat, son, feʼl, ravish, olmosh va tahlid soʻzlar kiritiladi¹.

¹ Toʻxlijev B. “Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi”. T.: “Yangi asr avlodi”. 2006, -B. 87.

Ot so'zturkumiga mansub so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, to'g'ri yozish, lug'aviy ma'nolarini bilish nutqda to'g'ri va o'z o'rnida qo'llay olishni o'rgatish – mazkur mavzuning asosiy maqsadi bo'lishi lozim.

Otlarning lug'aviy ma'nolari ularda uyadoshlik paradigmaticasi (guruhlash, turkumlash, qatorni davom ettirish) ishlash, “Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari” talablariga ko'ra o'quvchining kommunikativ savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilar nutqini otlar bilan boyitishda so'zlarni aniq va mavhumlarga ajrarish, istagan matndan o'lchash, ko'rish, ushlash mumkin bo'lganotlarning aniq yoki aksincha mavhumligi asosida ikki guruhga bo'lish, ularni tub va yasamalarga ajratish kabi ijodiy, amaliy ishlar bajarish so'zboyiligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1. Aniq otlar: suv, darslik, bog'bon, qatlama.

2. Mavhum otlar: tuyg'u, qalb, yaxshilik, qo'rquv kabi.

Guruhlarni mustaqil davom ettirish, aniq otlarda va mavhum otlar hosil qilish (bola – bolalik, sho'x – sho'xlik, loy - loygarchilik) kabi amaliy ishlarni bajarish o'quvchilar so'z boyiligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday misollarni biz “Shaytanat” asaridan olingan matnda ham kuzatishimiz mumkin. Keltirilgan matndan aniq va mavhum otlarni topish vazifasini berish mumkin:

Yaratganning mo'jizalariga aql bovar qilmaydi, shu kabi tog' shu kabi qor ko'pgina yurtlarda mavjud. Guluzorbegim aytganlariday, bu yerning qori par yostiqlay yumshog'u, boshqa yerniki toshday qattiq emas. E'tiborli jihati shundaki, qorli tog'larning har biri o'sha yurt egasi uchun suyimliroq. Shu bois ham Manzurani bundagi manzara lol qoldira olmadi. Balki eri, qizi yonida bo'lsa bu chiroyli ilg'armidi? (Shaytanat, 9-bet).

Atoqli va turdosh otlar mavzusini o'rgatishda, ular ifodalab keladigan shaxs nomlari, kasb-hunar, o'rin-joy, qurol-vosita, qarindoshlik otlari kabi ma'no guruhlari ustida ish olib borish mumkin.

Shaxs nomi, familiyasi, otasining ismi, taxallusini ifodalovchi otlar: Asadbek, Jamshid, Manzura, Abdusamad, Abdulhamid, Jalil, Kozlov, “Qassob”, “Bo’tqa”, “Xumkalla”. Otlar ustida mashg’ulotda atoqli va turdosh otlarni o’rganishda quyidagi misollardan foydalanish mumkin:

Asadbek o’g’li Abdusamad bilan tong qorong’usida yo’lga chiqib, Kozlovning oilasidan xabar olib qaytganda, maydalab yomg’ir yog’ayotgan edi. Abdusamad mashinani darvozaga to’g’rilab to’xtatishi bilan qo’shni eshik ochilib, Qamariddin chiqib keldi da, Asadbek bilan ko’rishib, uni uyiga taklif qildi. (Shaytanat, 339-bet).

Kelishik qo’shimchalari mavzusini o’rganishda ham ta’limning quyi bosqichlarida o’rganilgan kelishik qo’shimchalari va ularning imlosi haqidagi ma’lumotlarni xotiraga olish zarur. Buning uchun ijodiy diktant olish mumkin:

Abdusamad, so’ng Abdulhamid dunyoga kelishganida Manzuraning, Asadbekning qalblarida orzu umidlar ham tug’ilgan edi. Bu olamda hisobsiz o’lchovsiz narsalar ko’p. shulardan biri, ota-onaning farzandi baxti-saodatiga xos orzularidir (Shaytanat, 418-bet).

Morfologiyani o’rganishda so’z tarkibi, o’zak (negiz), so’zlarning yasalishi, so’z turkumlari haqida olingan ma’lumotlar mustahkamlanadi. Otlarning yasalishi: xonadon, kasalxona, ziyorotgoh, qarsak, mexmonxona...


O’quvchilarning so’z boyligini oshirishda sifat so’z turkumining imkoniyati cheksiz. Nutqning aniqligi, go’zal va ravonligi ko’proq shu turkumdagi so’zlarni bilish, ularni to’g’ri, o’rinli qo’llash bilan bog’liq.

Sifat turkumini o’rganishda ularning ma’no guruhlari ustida alohida to’xtalish zarur.

Sifatlarning ma’noviy guruhlarini o’rganishda o’xshatma so’zlar, sifat iboralar, ularga zid ma’noli so’zlar (iboralar) topish, ular orasidagi ma’no nozikliklarini farqlash singari mustaqil ish turlaridan foydalanish mumkin. Masalan:

Guluzorbegim aytganlariday, bu yerning qori par yostiqday yumshog'u, boshqa yerniki toshday qattiq emas.

“Orzular” so’zi bilan “sifat + ot” so’zqoliplari yordamida so’z birikmalari hosil qilish topshirig’ini berish mumkin:



Sifat darajalarini o’rganishga matndagi sifatlarni ajratish, qiyoslash va o’zaro farqlash, ularning ma’nosini izohlash asosida sifat darajalari yuzasidan egallangan bilimlar mustahkamlanadi. Keyinchalik o’quvchilarga sifatlarning yasalishi o’rgatiladi. Son, olmosh, ravish, fe’l so’zturnkumiga oid so’zlardan ham o’zasarida juda ko’p foydalangan.

Badiiy asarda inson uchun muhim bo’lgan g’oyaning mavjudligi mazmun salmoqdorligiga tengdir. Har qanday yozuvchi asarga muhim g’oyani yuklashga harakat qiladi. Yozuvchining hayotni idrok etishi uning g’oyani ifodalash mahorati bilan belgilanadi. Bu o’rinda Abdulla Qahhorning ushbu so’zlari o’rinli. Mahorat har bir so’zustida uzoq ter to’kib ishlashda emas, aynan o’sha so’zni topa bilishidir.

Badiiy mukammal asarlarning yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, ularda muyyan millatning tili butun jozibasi bilan namayon bo’ladi. Bu asarlar adabiy til normalarini mustahkamlabgina qolmay, balki uning boyishi, yanada sayqallanishi, ta’sir doirasining kengayishiga ham ta’sir ko’rsatadi.

Adabiy nutq – soʻzsaʼnatkorlari – yozuvchilar, shoirlar, olimlar tomonidan oshlangan, qaʼtiy meʼyorga solingan nutq koʻrinishidir.

Badiiy matnning lisoniy xususiyatlari tahlil qilinganda, morfologik birliklarning ishlatilishi bilan bogʻliq holatlar haqida fikr yuritish mumkin. Morfologik birliklarning estetik vazifasi – deganda, maxsus soʻzformalari vositasida, shuningdek, maʼlum bir grammatik maʼno va funktsiyaga ega boʻlgan qoʻllash orqali ekspressivlik-emotsional ifodalanishi tushuniladi¹.

Ekspressivlik ijobiy va salbiy maʼno qirrasiga ega boʻlgansoʻzlarda aniq koʻrinib turadi. Badiiy matn lisoniy jihatdan tekshirilganda avval ana shunday maʼno qirralarga ega boʻlgan birliklarni ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimning nutqida, nima maqsad bilan qoʻllanilganligi, kimga nisbatan qanday vaziyatda ishlatilganligiga eʼtibor qaratish lozim. Odatda, erkalash, suyish, hurmat-eʼzozlash, koʻtarinkilik, ulugʻvorlik, tantanavorlik kabi maʼnolarni bildiruvchi soʻzlar ijobiy maʼno qirrasiga ega boʻlgansoʻzlar hisoblanadi. Masalan: toychoq, qizaloq, oʻrgilay, girgirdon boʻlay, bolaginam, oppogʻim, doʻmbogʻim, arslonim, shakarim, shirinim kabi.

- Voy ... Manzura “oʻgʻlimning arvohini chirqiratib tashlab ketamanmi?” deganday eriga qaradi.

(Shaytanat, 465-bet).

Nasriy matnda morfologik (sintaktik) parallelizm ertaklarning boshlanishida koʻp kuzatiladi.

Ot soʻz turkumining koʻplik, egalik, kelishik kategoriyalari va subiektiv baho shakllarining poetik imkoniyatlarini tahlilga tortish ham lingvopoetikaning muhim masalalaridan biridir. Tegishli adabiyotlarda bunday qoʻshimchalarning hurmat, kinoya, piching, noaniqlik, kuchaytirish, takrorlash, taʼkidlash kabi maʼnolarni ifodalashda ishlatilishi aniq misollar bilan asoslab berilgan. Koʻplik shakli qoʻshimchaning qahramonlar ruhiyatidagi turfa tovlanishlarni tugʻal aks

¹ Abdullayev A. “Oʻzbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi”. T.: “Fan”. 1983, -B. 41.

ettirish imkoniyati boshqa qo'shimchalarga qaraganda aniq ko'zga tashlanib turadi.
Masalan:

1) Esladi-yu, maqsadini ham angladi: endi oyoqlariga bosh urib borishdan o'zga chora yo'q (Shaytanat, 47-b.)

2) Bu qimor o'yiniga onov-minov narsa emas, o'gillarinig jonlari tikilgan (Shaytanat, 47-b.)

Birinchi gapda hokisor bo'lmoq, ikkinchi gapda ko'plik ma'nosida ishlatilgan. Egalik shakli ham sof egalik qarashlilik ma'nosidan tashqari, erkalatish, koyish, tinchlantirish, nolish, achinish, kinoya, kesatiq, faxrlanish, kibr, kamtarlik kabi modal ma'nolarini ifodalashga xizmat qilishi mumkin.

Mening bilganim shuki, bu tomonlar endi Xongireyniki. Boshqalarning tishi o'tmaydi (Shaytanat, 486-b.)

Bu misolda yozuvchi jirkanch ishlardan faxrlanish va qarshisidagi insonga nisbatan kibr, manmanlik yoki tahqirlash ohangida muomila qilishga odatlangan qahramon qiyofasini aks ettirgan.

Badiiy asarlarda qo'llaniladigan ba'zi ismlar yozuvchining badiiy-estetik niyatini aniqlashga yordam beradi. Atoqli otlarning ana shunday vazifalarda qo'llanilishi bilan bog'liq hodisa ayrim adabiyotlarda antonomasiya degan nom ostida umumlashtiriladi.

O'zbek adabiyotida personaj xarakter – xususiyatini ochib beruvchi, tagma'noli kulgi yaratuvchi ismlar A. Qodiriy, A. Qahhor, Said Ahmad va boshqa yozuvchilarning hajviy asarlarida ko'p uchraydi. Salimsoq semiz, So'navoy, Sovinak, Mag'zava qori, Kalvak Mahzum, Toshpo'lat tajang (A. Qodiriy), Yontig'on, Cho'loq domla, Norincho'loq, semiz Nazarov, oriq Nazarov (A. Qahhor), G'oyibnazar, Pinhonov, Oldi Sottiyev, Tijoratxon (S. Ahmad) kabi asar qahramonlari ismlarida yozuvchining kinoyasi aniq sezilib turadi.

Mahoratli yozuvchilarimiz qahramonlarning hayoti, taqdiri va ruhiyati bilan uning ismi o'rtasida mushtaraklik o'rnatish orqali betakror obrazlar yaratishga harakat qiladilar. Bu albatta yozuvchining lisoniy mahorati hisoblanadi va bunday

holatlarni tadqiq qilish orqali yozuvchining poetik olamiga kirib borish mumkin. Masalan: Guluzor begim, Manzura, Mushtariy, Cho'lpanoy, Jalil, Jamshid, Muhiddin ota kabi qahramonlarning ismi jismiga mos.

Sifat so'zturkumi poetik vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. U badiiy adabiyot tilida eng ko'p uchraydigan epitelar hosil qilishda qo'llaniladi. Shuningdek, sifat so'z turkumidagi sinonimiya hosil qiluvchi shakllar hamda sifat yasovchi qo'shimchalar orqali badiiy-estetik effekt hosil qilinadi.

Sonlar aslida gapdagi muayyan miqdorga anqlik kiritish uchun ishlatiladi. Lekin mavhumlik, yoki me'yoridan ortqlik ma'nolarini urg'ulash uchun qo'llanilganligini ham kuzatish mumkin.

Ushbu misolda bir soni anqlik emas, qandaydir, qaysidir ma'nolardagi mavhumlikni ifodalaydi:

Hindiqushdan taraldi bir nola,

Yuraklarni titratib zir-zir nola.

Qarang qonga botib yotar bir dola,

Mangu armon bo'libketgan o'g'lonlar (M. Yusuf)

Quyidagi misolda keltirilgan ming soni ham konkret miqdor emas, balki uzoq muddat ma'nosidagi me'yordan ortqlikni bildiradi:

Sochgum dunyoga gulday mehrim,

Toki yurak urib turadi.

Sen abadiy yashaysan she'rim –

Qarg'a faqat mingga kiradi (M. Yusuf)

Badiiy matnning ekspressivligini ta'minlashda lharning ham alohida o'rni bor. Olmoshlar bir so'zning takrorlanishi bilan yuzaga keladigan jalizrlkning oldini oladi. Olmoshlarning takrorlanishi esa nutqqa oz'iga xos ohangdorlik bag'ishlaydi.

Badiiy matn tahlilida fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarga ham e'tibor qaratis h lozim. Fe'ning mayil, shaxs-son, bo'lishli, bo'lishsizlik, nisbat zamon hamda

funksional shakllari asosida namayon bo'lvchi o'ziga xoslikni o'rganish maqsadga muvoffiq.

Mustaqil so'zlar turkumiga kiruvchi barcha so'zlarning ekspressiv imkoniyatlari benihoya kengdir.

2.2. Sintaktik birliklar va ularning o'zigaxos xususiyatlari

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini tadqiq qilgan olim – Adham Abdullayev: “sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanilishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq” kabi uslubiy figuralar fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

“Badiiy tekstning lingvistik tahlili” kitobi mualliflari, sintaktik figuralarning quyidagi asosiy ko'rinishlarini bayon qiladi: anafora, epifora, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so'roq kabilar. Bu uslubiy vositalar mavzuga aloqador bo'lgandeyarli barcha adabiyotlarda uchraydi. Bunga quyidagi hodisalarni aytib o'tish mumkin:

Sintaktik parallelizm. Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko'p qo'llaniladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar – “parallelizm” atamasi bilan o'rganiladi. Parallelizm yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishiga ega bo'lishidir:

Tangrim yana birgina karomat etsada, man vatan ozodligin ko'rsam. Vatan erki xususidagi darakni eshitsamgina bas, orada to'rt ummon o'lsa-da surib o'tajakman, vatan tuprog'in o'pajakman! Banda uchun shu baxtning o'zi basdir. Banda-bandaga ta'zim etmas, ammo man banda vatan istiqbolin olam aro ovoza etmish bandaga ta'zim qilajakman. Siza so'zim shuldir, azizlarim.

(Shaytanat, 124-b.)

Bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq ta'sirchanligini boyitish bilan birga ma'noni kuchaytirishga va fikrning batafsil atroflicha ifodalanishiga, ta'sir obyekti bilan bog'liq ma'lumotlar fondining kengayib borishiga xizmat qiladi.

Emotsional gaplar. So'zlovchining o'ta xursandlik yoki o'ta xafalik holatlarini, yoki qahramonning his-hayajonini voqea-hodisaga emotsional munosabatini ifodalaydi.

Emotsional gaplar tarkibida maxsus ijobiy va salbiy bo'yoqdor so'zlar mavjud bo'ladi. O'sha so'zlar orqali qahramon ruhiyatidagi kechayotgan sevinch, qo'rquv, g'azab kabi psixologik jarayonni yozuvchining ta'sir obiektiga nisbatan subiektiv munosabatini bilib olamiz. Emotsional gaplar tarkibida his-tuyg'uni (oh, voy, sho'rim, eh, attang, bay-bay kabi) ifodalovchi undalmalar ham qatnashadi:

Asadbek To'lqinni har ko'rganda o'sha tupirish voqeasini eslab, bir ijirg'anib olardi. Ayni damda, yuragi zardobga to'lib ezilib turgan ohlarda uning tashrifi dard ustiga chipqon bo'ldi (Shaytanat, 19-b.)

Ritorik so'roq gaplar ham badiiy matnning emotsional ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi. Tasdiq va inkor mazmuniga ega bo'lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplar, ritorik so'roq gaplardir. Bunday gaplar tarkibida nahotki, axir kabi ta'kidni kuchaytiruvchi so'zlar keladi. Ular nutqga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi va tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta'kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, achinishini, ajablanishini, shubha va gumonsirashin, g'azab va nafratini ifodalashda juda qo'l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va dialogik nutqda keng qo'llaniladi.

Atoqli shoir Abdulla Oripovning "Olomonga" deb atalgan she'ri ritorik so'roqning go'zal namunasi bo'la oladi:

Mashrab osilganda qayoqda eding?
Cho'lpon otilganda qayoqda eding?
So'rishtirganmiding Qodiriyni yo,
Qalqon bo'lganmiding kelganda balo?
Hukmlar o'qilar sening nomingdan,
Tarixlar to'qilur sening nomingdan.
Nimasan? Qandayin sehrli kuysan?

Nechun tomoshaga bunchalar o'chsan?

Qarshingda hasratli o'yga tolaman,

Qachon xalq bo'lasan, ey, sen – olomon!?

Inversiyada gap bo'laklarining o'zni almashadi, yoki gap bo'laklarining joylashish tartibining o'zgarishi. Invertsiya nutqqa xos xususiyat. Badiiy matnda qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirishda, ularning tilini individuallashtirishda bu usuldan foydalaniladi:

- Xo'jayin senmisan bu yerga? – deb so'radi Asadbek.

(Shaytanat, 289-b.)

Gradatsiya – nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishidan iborat uslubiy jarayon.

- Asad aka, to'xtang, orani ochiq qilib ketong. Asadbek to'xtab yarim o'grildi da, juvonning yonida turgan Jalilga qarab:

- Bularga tushuntirib qo'y: tor't tomonlari qibla, - dedi.

- Yuringlar buni keyin gaplashamiz, hozir mavridi emas, - dedi Jalil, ziddiyatni yumshatish maqsadida.

- Yo'q, - To'xtaxon bo'sh kelmay, - otamning uyiga bu odam nega xo'jayinlik qiladi? Sadir sariqqa rahmlari kelsa, ana o'zlarining uulari bo'm-bo'sh, xangillab yotibdi, borsinlar.

Asadbek unga g'azab bilan tikildi-yu, bir yutinib qo'yib teskari qaradi.

- To'xta bo'ldi, yur, bu ishga Asad akangning dahli yo'q, u sira aralashmagan, bu adangning vasiyatlari.

- Vasiyat bo'lsa qog'oz ko'rsatsinlar.

- Bo'ldi, qil-e, buncha shang'illaysan! – Jalil jerkib, juvonning yengidan siltab tortdi: - bor uyga kir.

To'xtaxon Jalilning amriga bo'ysinib orqasiga o'grilishga o'grildi-yu, ammo tilini tiymadi:

- Qorinlari to'yib qolgan bularning. Adamning nonlari bo'lmaganda qirilib ketishardi (Shaytanat, 277-b.)

O'zbek tiliga davlat tili berilishi bu tilning ichki va tashqi imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish imkoniyatini yaratadi. O'zbektili asrlar davomida necha minglab turkiy ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bo'lib, o'zbekxalqi orasida o'zaroaloqa qilmoqda.

O'zbek tilining o'zigaxos jilosi, uning serqirraliligi badiiy obrazlar yarata olish qudratini to'laroq anglash uchun mumtoz va hozirgi zamon adiblarimiz badiiy asarlarini tilini o'rganish zamon talabidir. Ana shu maqsadda biz ham Tohir Malikning "Shaytanat" asari lisoniy xususiyatlarini o'rganishni maqsad qilgan edik. Mavzuga oid misollar to'pladik va bu badiiy asarning til hususiyatlarini o'rgandik.

Ma'lum bir asarning g'oyaviy mazmunini badiiy-estetik qimmatini to'la anglamoq uchun matndagi har bir til elementini chuqur his qilib, tahlil etish lozim.

Gap. Matnning eng kichik bo'lagi hisoblanadi. Bu o'rinda gap atamasi biz odatlanib kelgan "tugal fikr anglatgan predikativ aloqaga ega bo'lgantil birligi". Ma'nosidan keng, ya'ni "gap" nutq birligi sifatida mustaqil konstruksiya asosida mavjud bo'lgan birlik deb tushuniladi. Shuning uchun ham istalgan so'zlarni biriktirib so'z birikmasi yoki gap tuzib bo'lmagani kabi har qanday gaplarni biriktirib ham matn tuzib bo'lmaydi. Masalan, quyidagi to'rtta gapdan bir matn yaratib bo'lmaydi:

Dalalar ko'm-ko'k bo'ldi.

Suv vodorod va kislorodning birikuvidan hosil bo'ladi.

Mashina yurdi.

Ilg'or o'quvchilar mukofotlandimi?

Bu gaplar mazmun va grammatil jihatdan turlicha bo'lib, ular orasida umumiy mazmuniy bog'lanish yo'q. Boshqacha qilib aytganda, matndagi gaplar bir-biri bilan kontakt yoki distant holatda bog'lanishi shart. Matn bo'lishi uchun barcha gaplar mazmunan bir ma'no asosida bo'lishi lozim.

Matnlar hajm va tuzilishi jihatdan bir-biridan farq qiladi. Matnlar hajm jihatidan uchga bo'linadi: kichik, o'rta va katta.

Telegramma, ma'lumotnoma, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati va vaqtli matbuotda chiqadigan e'lon va kichik xabarlar kichik hajmdagi matnlar sanaladi. O'rta hajmdagi matnlarga hikoya, qissa, she'r, doston, poemalar kiradi. Katta hajmdagi matnlarga povest, roman, drammatik asarlar, trilogiya, epopeyalar kiradi.

Tuzilishiga ko'ra matnlar gap, murakkab sintaktik butunlik, abzats, bo'lim va boblarga bo'linadi.

Abzats – kompozitsion uslubiy ajratish harakteridagi nutq birligi bo'lib, kitobxonning diqqatini yangi fikrga, yangi tasvirga jalb etish vazifasini bajaradi. Abzats matnda tugal ma'noni ifodalagan bir xat boshidan ikkinchi xat boshigacha bo'lganyaxlit mantiqiy nutq birligidir.

“Badiiy matn tasviriy, obrazli va jozibali bo'ladi. U xalq tilinning barcha imkoniyatlarini o'zida aks ettiradi. Bunda tilning fonetik, leksik-semantik, grammatik vositalari badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, badiiy matn o'zaroaloqador bo'lganfonetik, leksik va grammatik birliklarni mujassamlashtirgan eng yirik nutq birligi sifatida bir butun sistemani shakllantiradi. Shuningdek, badiiy matn o'zida semantik hamda stilistik sistemani o'zichiga oladi.

Demak, badiiy matn tilshunoslikning eng murakkab, ko'p qirrali tekshiruv obyektidir”¹.

Nasriy matnlarning lingvistik tahlili ham poetik matnlar singari til yaruslari bo'yichatahlil etiladi.

Leksik sath. Har bir matnda leksik ma'no ifodalovchi so'zlar, grammatik ma'noli so'z bo'ladi. Shuningdek, ko'chmama'noli, omonimik, sinonimik xususiyatga ega so'zlar zid ma'noli so'zlar ham bo'lib, ular nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Umumiy fikrga nisbatan tinglovchining qiziqishini kuchaytiradi.

Matnning leksik asosini o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan so'zlar tashkil qiladi. Shuningdek, asar mavzu va mazmuniga mos ravishda qo'llanish doirasi

¹ Qilichev E. “Matnning lingvistik tahlili”. Buxoro, 2000. –B. 8-9.

chegaralangan soʻzlar ham uchraydi. Biz shu mavzuga oid misollarni “Shaytanat” asaridan toʻpladik.

“Grammatik shakllarning funksional uslubiy va emotsional uslubiy xususiyatlari morfologik uslubiyatda oʻrganiladi. Morfoligik elementlar soʻzlarni shakllantirish, munosabatga kiritish, shu asosda maʼlum bir fikrni ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, ayrim shakllar oʻzi qoʻshilib kelgan soʻzga konnotativ maʼnolar ham qoʻshadi. Morfologik vositalarda konnotativ maʼnolar leksik vositalarga nisbatan ozroq boʻlsa da, ular turli nutq uslublarida rang-barang hissiy taʼsirchanlikni ifodalay oladi.

Ayniqsa, qoʻshimchalardagi polosemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya va boshqalar uslubiy potensiyaga ega. Grammatik shakllar va ularning variantlari deyarli barcha soʻz turkumlarida uchraydi. Ana shi variantlardan birini tanlash, hatto oppozitiv xarakterdagi grammatik shakllarni biri oʻrnida ikkinchisini almashtirib qoʻllash (koʻplik shaklini birlik maʼnosida ishlatish, birinchi shaxs oʻrnida ikkinchi shaxsni qoʻllash) ham muhim uslubiy ahamiyatga ega. Bu oʻrinda matn va ohang muhim rol oʻynaydi”¹.

Shunday qilib, funktsional uslubiy boʻyoqqa ham hissiy taʼsirchan – boʻyoqqa ham ega boʻlgan grammatik shakllarning barchasi morfologik uslubiyatning tekshirish obyektidir. Otlardagi koʻplik qoʻshimchasi ham polisemantik xususiyatga ega. Birlik shaklidagi qarindoshlikni bildiruvchi ot negizlariga qoʻshilganda hurmat maʼnosini bildiradi:

Yaxshi hamki oynavand devorning xiraligi otalari yoynogʻiga dumalagan koʻzyoshni parda qilib toʻsdi.

(Shaytanat, 116-bet).

Goʻzal yorlari hamrohligida uyga kirib bormoqni, kelin salomdan quvongan otalari bilan koʻrishmoqni orzu etgan oʻgʻillar xira oynavand toʻsiq ortidan “Adajon, bizning hech gunohimiz yoʻq”, - degan maʼnoda jovdirov qarashardi.

¹ Qilichev E. “Oʻzbek tilining amaliy stilistikasi”. T.: “Oʻqituvchi”, 1992. –B. 11.

(Shaytanat, 116-bet).

Bilasizku tillari bilan yuradigan bo'libketishgan.

(Shaytanat, 116-bet).

Subyektiv baho shakli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, kichiraytirish, erkalash ma'nosi kuchaytiriladi:

- Asad, keldingmi, toychoq bolam, - dedi u tetik ovozda. Bu toychog'ingizni men yetaklab keldim.

(Shaytanat, 208-bet).

Olib kelsang ... yonimga qo'y, xo'pmi, toychog'im.

(Shaytanat, 209-bet).

Kelishik shakllarining har biri o'z vazifasini bajarishi bilan birga, ba'zan boshqa-boshqa kelishiklarga xos bo'lgan vazifa ma'nolarini ham ifodalashi mumkin. Jumladan qaratqish kelishigi qo'shimchasi o'zi qo'shib kelgan so'z bilan birgalikda aniqxoslik, umumiyxoslik, butunning bo'lagi, to'dadan ajralganlik, o'xshatish, qiyos qilish kabi qator semantik-uslubiy ma'nolarini ifodalaydi:

Tepasida uchar gala qush,
Arg'imchog'i daryoga solib.

Subyektiv baho shakllarining uslubiy qo'llanilishi hozirgi o'zbektilidagi: -gina (-qina, -kina), -cha, -choq, -chak, -loq, -jon, -xon, -oy, -voy tipidagi qo'shimchalar so'zlovchining obyektiv borliqqa, o'z nutqiga ega bo'lgan modal munosabatini ifodalaydi.

Bu shakllar sevish, erkalash, kuchaytirish kabi konnotativ ma'nolarni ifodalaydi. Bu qo'shimchalar orqali ifodalanadigan ma'nolar badiiy asarda qahromonlarning o'ziga xos xususiyatlarini: ulardagi dilkashlik, muloyimlik, yoqimlilikni ochishda muhim uslubiy ahamiyatga ega. Kichiraytirish-erkalash shakllari ham nutq jarayonida ishlatiladi. Shuning uchun ularning ma'nolari nutqning umumiy mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Subyektiv baho shakllaridagi ma'nodoshlik va ko'p ma'nolilik ularning turli nutq uslublariga xosligi bu vositalarning uslubiy vositasini belgilaydi.

-cha qo'shimchasi funktsional nutq uslublarining barchasida bir xilda ishlatiladi. Bunda obyektiv kichiklik ma'nosidan tashqari subyektiv baho ma'nosi ham ifodalanadi.

Atoqli otlarda –cha morfemasi qo'shilganda esa, so'zlovchining salbiy emotsiyasi bo'rttiriladi. Shuningdek, egalik qo'shimchalari bilan yonma-yon kelib, o'rni bilan kesatish, piching, hazil ma'nolarini ham bildiradi.

UMUMIY XULOSALAR

Bugungi kunda ona tili ta'limi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri o'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi. Biz ham shu talablardan kelib chiqib, yozuvchu Tohir Malikning "Shaytanat" romanining lisoniy xususiyatlarini yoritib berishni maqsad qilib qo'ydik.

Mazkur ishni yozish jarayonida ushbu mavzuga doir va yaqin bo'lgan bir necha adabiyotlar o'rganildi va tahlilga tortildi. "O'zbek tili o'qitish metodikasi", "O'zbek tilining amaliy stilistikasi", "Matnning lingvistik tahlili" kabi ishlarda keltirilgan qimmatli fikrlar mulohazalarimizni yuritishda asos vazifasini o'tadi.

Hammamizga ma'lumki, badiiy asar tili juda murakkab va o'zigaxos hodisa hisoblanadi. Bunda har bir yozuvchi yoki shoirning so'zqo'llash mahorati ham o'aksini topgan bo'ladi.

Bugungi kunda maktab "Ona tili" darsliklarida ham matn ustida ishlash taqdim etilgan; bunda, badiiy matnlar tiliga xos bo'yoqlar, emotsional-ekspressiv, shirador, ohangdor sintaktik qurilmalar, shuningdek, badiiy tasvir vositalarini tahlil qilishning ahamiyati kattadir. Bu jarayon orqali o'quvchilarning nutq madaniyati rivojlantiriladi, adabiyot darslarida olgan bilimlari kengaytiriladi. Bunday topshiriqlarni bajarishda badiiy matnning til xususiyatlari tahlil qilinadi. Ayrim ona tili darsliklarida "iboralar", "Tasviriy ifodalar" va shunga o'xshash mavzular o'tiladigan darslarda badiiy matn tahlil uchun tavsiya etilmagan. Mazkur ishimizda to'plangan misollardan yuqorida keltirilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida foydalanish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu til hodisalari badiiy matnda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham barcha mavzular bo'yicha berilgan matnlar ustida ishlash jarayonida ularni aniqlash, tahlil qilish va izohlash talab etiladigan mashqlarga e'tibor bilan qarash maqsadga muvofiq.

Tildagi obrazlilikni ifodalovchi vositalar orasida iboralar, ko'chmama'noli so'zlar alohida o'rinegallaydi. Chunki bunday so'zlar ma'no nozikliklarini ifoda etuvchi obrazli birikmalar hisoblanadi.

Biz Tohir Malikning "Shaytanat" asarining to'rtinchi kitobining leksik va grammatik xususiyatlarini o'rganibchiqdik, ko'plab misollar tanlab tahlilga tortdik. Tahlillar natijasida mashhur adibning xalq tilini juda yaxshi o'zlashtirganligining guvohi bo'lamiz hamda uning asarlarida xalq orasida jonli qo'llanilib yurgan ifodalardan ham o'rinli foydalana olganligi kuzatiladi.

Yozuvchi o'z asarlarida har bir so'zga katta mas'uliyat yuklaydi. Sababi, asarda ishlatilgan iboralar, ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlar asosiy qismi nutqda ma'lum uslubiy maqsad, ekspressivlik uchun xizmat qiladi. Shu sababli ular badiiy matnda obraz, personaj, xarakter qirralarini to'la ochishda va voqea-hodisa, holatlarni obrazli qilib bo'rttirib tasvirlashda qo'llaniladigan muhim til birliklari sanaladi.

Badiiy matnning lisoniy xususiyatlari tahlil qilinganda, morfologik birliklarning ishlatilishi bilan bog'liq holatlar haqida fikr yuritish mumkin. Morfologik birliklarning estetik vazifasi – deganda, maxsus so'zformalari vositasida, shuningdek, ma'lum bir grammatik ma'no va funksiyaga ega bo'lgan so'zshakllarini qo'llash orqali emotsional-ekspressivlik to'liq ifodalanishi tushuniladi.

Ekspressivlik ijobiy va salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlarda aniq ko'rinib turadi. Badiiy matn lisoniy jihatdan tekshirilganda avval ana shunday ma'no qirralarga ega bo'lgan birliklarni ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimning nutqida, nima maqsad bilan qo'llanilganligi, kimga nisbatan qanday vaziyatda ishlatilganligiga e'tibor qaratish lozim. Odatda, erkalash, suyish, hurmat-e'zozlash, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, tantanavorlik kabi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar ijobiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar hisoblanadi.

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini yozuvchi asarida

qo'llangan turli sintaktik vositalar "sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanilishi, antiteza, monolog, sukut, invertsiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq" kabi uslubiy figuralar fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qilganligini ta'kidlash lozim.

Shuningdek, asarda olimlar tomonidan e'tirof etilgan quyidagi sintaktik figuralar turlarining faol qo'llanilganligini ham asar jozibasi, badiiyligi, mazmun-mohiyatining to'la ochilishiga olib kelganligi bilan asoslash lozim. Jumladan, sintaktik figuralarning quyidagi asosiy ko'rinishlari kuzatiladi: anafora, epifora, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so'roq kabilar. Bu uslubiy vositalar mavzuga aloqador bo'lgandeyarli barcha adabiyotlarda uchraydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, badiiy asar tilini tahlil qilish, til vositalarining nutqda ma'lum uslubiy maqsadlarda qo'llanishini o'rganish, ularning sintaktik vazifalarini aniqlash, har bir morfologik birlikning grammatik-semantik va sintaktik imkoniyatlarini belgilash hozirgi kunda o'zbek tilshunosligi rivojida, xususan, badiiy asar tili yoki matnni tahlil qilishda katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, badiiy asarning lisoniy xususiyatlarini o'rganish ta'lim jarayonida muhim uslubiy vosita ham sanaladi. Jumladan, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassalari hamda oily ta'lim muassasalari til darslarida badiiy matnlardan o'tilayotgan mavzuga doir til hodisasini aniqlash va izohlash mashqlari o'tkazishda, qo'shimcha ravishda muayyan reja asosida ularning til xususiyatlarini ham tahlil qilish o'quvchi yoki talabalarning nutq madaniyatini rivojlantirishda, undan tashqari so'zqo'llashning uslubiy qoidalarini ham amaliy egallashlariga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". Toshkent, "O'zbekiston", 1992.
2. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". Toshkent, "Sharq", 1999.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". Toshkent, "O'zbekiston", 2008.
4. Abdullayev A. "O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi". Toshkent, "Fan". 1983.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, 16-tom. T., 2000, -B.8.
6. Asqarova M., Qosimova M., Jamolxonov H. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent, "O'qituvchi". 1989.
7. Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. T., 1988, -B.78-92;
8. Hojiyev A. "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati".
9. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. Samarqand, 1992, -B.22.
10. Karimov S., Jo'raev T. O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati (bibliografik ko'rsatkich), Samarqand, 2001;
11. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari, XX asr o'zbek adabiyoti. T., 2000, -B.183-184.
12. Nosirova D. "Antonimlar qiyos ifodalovchi vosita sifatida". 2009. 6-son, -B.95.
13. Qilichev E. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Buxoro, 1999.
14. Qilichev E. "Matnning lingvistik tahlili". Buxoro, 2000.
15. Qilichev E. "O'zbek tilining amaliy stilistikasi". Toshkent, "O'qituvchi". 1992.
16. Qo'ng'urov R., Karimov S. O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari. (Bibliografik ko'rsatkich). Samarqand, 1984;

17. Rasulov R. “Obrazli jarayonni ifodalashda fe’llarning ma’no xususiyatlari”. Til va adabiyot ta’limi jurnali. 4-son, 2006. –B.26.
18. Rahmatullayev Sh. “O’zbektilining izohli frazeologik lug’ati”. Toshkent, “O’qituvchi”. 1978.
19. Rahmatullayev Sh. “O’zbek tili omonimlarining izohli lug’ati”. Toshkent. “O’qituvchi”, 1984.
20. Rahmatullayev Sh. “O’zbek tilining frazeologik lug’ati”. Toshkent, “O’qituvchi”. 1992.
21. Saidxonov M. “Badiiy matn kommunikativ vosita sifatida”. O’zbektili va adabiyoti jurnali. 5-son, 2009. –B.77.
22. To’xliyev B., Shamshiyeva M., Ziyodova T. “O’zbektili o’qitish metodikasi”.
23. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T., 2002, -B.161.
24. Umurqulov B. “Nasriy matnda so’z”. Til va adabiyot ta’limi jurnali. 2002, 5-son.
25. Yo’ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. “Badiiy matnning lisoniy tahlili”. Toshkent, 2010.
26. Yo’ldoshev B., Pardayev Z., Bobojonov F. Badiiy asar tili masalalari. Navoiy, 2001.
27. Bu haqda quyidagi ishlarda etarli ma’lumot berilgan: Adabiyot nazariyasi, ikki tomlik, 1-tom. T., 1978, -B.322-323; Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T., 1986, -B.206-207; Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so’z. T., 1993, -B.7-8.
28. Tohir Malik. “Shaytanat”. 4-kitob. -Toshkent, 2001.
29. [www. tashiit. uz](http://www.tashiit.uz).
30. [www. press_ servise. uz](http://www.press_servise.uz).
31. [www. ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz).

MUNDARIJA

Asoslama.....	
Kirish.....	
I bob. “Shaytanat” asarining leksik-semantik xususiyatlari.....	
1.1. Ko’p ma’noli so’zlarning o’zigaxos xususiyatlari.....	
1.2. So’zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlarining ishlatilishi.....	
1.3. Iboralarning semantik xususiyatlari.....	
1.4. Asarda murojaat birliklarining qo’llanishi.....	
II bob. “Shaytanat” asarining grammatik xususiyatlari.....	
2.1. “Shaytanat” asarining morfologik xususiyatlari.....	
2.2. Sintaktik birliklar va ularning o’ziga xos xususiyatlari.....	
Umumiy xulosalar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	